

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

Vapaev Akmal Xamraevich

5340100-“Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” ta’lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MINTAQADA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

Ilmiy rahbar:

Sadullaev A.

Urganch 2013 yil

MINTAQADA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

KIRISH

1 - BOB. MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI

- 1.1. Mehnat resurslari tushunchasi
- 1.2. Mehnat resurslaridan foydalanishning mohiyati va vazifalari
- 1.3. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasida aholi bandligi muammolari

2 - BOB. VILOYATDA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

- 2.1. Viloyatda mehnat bozori shakllanishining demografik jixatlari
- 2.2. Viloyatda ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari
- 2.3. Mehnat bozorini tartibga solishning asosiy yo`nalishlari va istiqbollari

XULOSA VA TAKLIFLAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

ILOVALAR

KIRISH

Mehnat bozori bozorning boshqa tizimchalari bilan uzviy bog'langan. Haqiqatdan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat o'zini qayta ishlab chiqarish, balki mehnat resurslari va butun aholining sifat ko'rsatkichlarini ham yaxshilanishini oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo'q qilishi mumkin. Ishchi kuchiga jami talab - investisiya va ishlab chiqarish hajmlari bilan tartibga solinadi.

Mehnat resurslari yalpi aholining bir qismi sifatida aholining takror ishlab chiqarishi (ya'ni uning doimiy ravishda tiklanib turishi) ni aks ettiradi. SHuning uchun mehnat resurslari sonining dinamikasi, pirovard natijada, aholi soni dinamikasini aks ettiradi. O'smirlar va pensionerlarning mehnat bilan bandlik darajasidagi o'zgarishlar fakat mehnat resurslariga emas, balki aholining soniga xam daxldor. Tug'ilishdagi farqlar darhol axoli sonining oshishiga ta'sir qiladi, mehnat resurslarida esa fakat 16 yildan keyin aks etadi. Qancha kishi pensiya yoshiga yetishi fakat mehnat resurslariga ta'sir kiladi, butun axolining soniga daxldor bo'lmaydi. Mehnat resurslarining aksariyat qismini mehnat qilishga layokatli yoshdagi mehnatga kobiliyatli axoli tashkil etadi. SHuning uchun xam mehnat resurslarining dinamikasiga xos xususiyatlar ko'prok darajada mehnatga layokatli yoshdagi axoli bilan bog'liqdir.

Mehnat resurslarini shakllantirishning mintaqaviy xususiyatlari, avvalo, demografik va sosial-iqtisodiy omillarning ta'siri bilan bog'liqdir. Demografik omillarga aholining takror ishlab chiqarilishidagi jadallik kiradi, u hal qiluvchi darajada tug'ilish darajasi bilan bog'liqdir. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi, demak mehnat resurslari shunchalik tez o'sadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillardan mehnat resurslarini shakllantirish uchun ancha ahamiyatlisi mintaqadagi ishlab chiqarish va iqtisodiy konyunktura tuzilmasining xususiyatlari (mehnat unumdorligining o'sishi) ni aytib o'tish

mumkin. Bu hol ishlovchi o`smirlar va ishlovchi pensionerlar soniga ta'sir qiladi. Ish o`rinlarining ayniqsa, o`smirlar va katta yoshdagi ishlovchilarning mehnatdan foydalanishga mos keladigan ish o`rinlarining mavjudligi ishlab chiqarish tuzilmasi bilan bog`liqdir.

Mintaqaning ijtisimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirishning pirovard maqsadi ushbu mintaqa aholisining farovonligini oshirish hisoblanadi. Bunday maqsadga avvalambor mintaqa aholisining oqilona bandligini ta'minlash orqali erishish mumkin. Binobarin, mintaqa rivojlanishi strategiyasida aholi bandligi bo`limiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak bo`ladi.

Albatta, aholi bandligini ta'minlash strategiyasi (yoki strategik hujjatning aholi bandligi bo`limi) mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi va sharoitlari, uning mehnat va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatning tarkibi ham ushbu sharoitlardan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Mintaqada bandlik muammosi ayniqsa qishloq aholisi uchun juda dolzarbdir. Mehnat resurslari balansiga ko`ra qishloq joylaridagi ishsizlarning ulushi iqtisodiy faol aholi tarkibidagi qishloq aholisi ulushidan kattadir. Bunday vaziyat, avvalambor, agrar sektordan bo`shab qolganlarni qishloq joylaridagi iqtisodiyotning boshqa sohalariga ishga joylashtirishning cheklanganligi bilan izohlanadi. Natijada yashirin ishsizlik va ro`yxatga olinmagan bandlik miqyoslarining oshib ketishiga olib keladi, binobarin qishloq aholisining ijtimoiy muhofaza qilinmagan qismi ko`payadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi mintaqada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo`nalishlarini tahlil qilish va sohani rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy maqsad va tadqiqot mavzusiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilangan:

- mehnat resurslari tushunchasigp ta'riflarni tahlil qilish;
- mehnat resurslaridan foydalanishning mohiyati va vazifalarini aniqlash;

- mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasida aholi bandligi muammolari o`rganib chiqish;
- viloyatda mehnat bozori shakllanishining demografik jihatlarini tahlil qilish;
- viloyatda ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- mehnat bozorini tartibga solishning asosiy yo`nalishlari va istiqbollarini belgilab berish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy – tahliliy xulosa va tavsiyalari hududlarda ijtimoiy sohadagi dasturlarni ishlab chiqishda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, hokimliklar, iqtisodiyot, statistika organlarida aholi bandligining istiqbol ko`rsatkichlarini belgilashda, hamda oliy o`quv yurtlari “Iqtisodiyot” yo`nalishlarida “Mehnat iqtisodiyoti va aholishunoslik” fanini o`qitishda foydalanilish mumkin.

1 - BOB. MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI

1.1. Mehnat resurslari tushunchasi

Mehnat bozorining shakllanishi, shu bilan birgalikda aholi bandligi va ishsizligi muammolari ishchi kuchi, mehnat resurslari, mehnat salohiyati, migasiya salohiyati, inson resurslari va boshqa shu kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqdir. Ishchi kuchi – bu mehnat qilishga qodirlikdir, va u, egasi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok qilgandagina namoyon bo'ladi. Aytib o'tish kerakki, **“ishchi kuchi”** tushunchasining mohiyati faqat amaldagi xo'jalik tizimini ochib berish zarurligi nuqtai-nazaridan muhimdir, **“mehnat salohiyati”** bu doiradan chiqib, aholining hali foydalanilmagan salohiyatidan istiqbolda takror barpo qilish jarayonini kuchaytirish mumkinligin anglatadi. SHunday qilib, **“mehnat salohiyati”** an'anaviy ishchi kuchi kategoriyasiga nisbatan mehnatga faol aholi imkoniyatlarini aks ettiradi va undan turli ko'rsatkichlar bilan va mehnatga qodirlikning qo'shimcha zahiralari bilan farq qiladi, ular insonning turli sifatlari, hamda kishilarning jamoaviy faoliyati natijalarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, **“ishchi kuchi”** va **“mehnat salohiyati”** tushunchalari bilan mohiyati jihatidan o'xshaydigan yana bir tushuncha – bu, **“mehnat resurslari”** bo'lib, u mamlakat aholisining bir qismi bo'lib, xalq xo'jaligida ishlash uchun zarur jismoniy rivojlanishga, bilimga va amaliy tajribaga ega bo'ladi. Mehnat resurslariga bandlarni ham, istiqboldagi ishchilarni ham kiritadilar.

Xorijda **“inson resurslari”** tushunchasi ishlatiladi, u **“mehnat resurslari”** tushunchasiga o'xshashdir. Har bir mamalakatda jamiyatning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan aholi va mehnat resurslari tarkibida bo'lgan inson resurslarining holati bilan aniqlanadi. Mehnat resurslarining asosiy qismini mehnatga yaroqli yoshdagi aholi tashkil qiladi. Mehnatga yaroqli yosh va mehnat resurslarining ijtimoiy-demografik tarkibi milliy qonunchilik bilan belgilanib, u har mamlakatda har-xildir. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra mehnatga yaroqli yoshlar bo'lib 16 yoshdan 59 yoshgacha erkaklar uchun, va 16 yoshdan 54 yoshgacha ayollarga belgilangan. Mehnat resurslari tarkibiga I va II guruh nogironlari va

muddatidan oldin pensiyaga chiqib ishlamaydigan pensionerlar (5 va undan ko'p bola tug'ib, ularni 8 yoshgacha tarbiyalagan ayollar, bolalikdan nogironlarni 8 yoshgacha tarbiyalagan onalar, va mehnat stajidan qat'iy nazar 50 yoshga yetganda pensiya oladigan aholining ba'zi qatlamlari: og'ir va zararli mehnat bilan shug'ullanadi ganlar – ayollar 45-50 yoshda, erkaklar 50-55 yoshda pensiyaga chiqadilar). SHu bilan birgalikda, mehnat resurslariga pensiya yoshida ishlayotgan qariyalar va ishlayotgan o'smirlar ham kiritiladi. Binobarin, mehnat resurslarini real va istiqboldagi deb qarash mumkin. Real mehnat resurslari – bular, aholining ish bilan band qismi; istiqboldagi mehnat resurslari esa – ishlamaydigan, lekin mehnatga yaroqli qismi.

Globalizasiya sharoitida moddiy resurslarni mamlakatlararo taqsimlanishiga mos ravishda mehnat resurslari taqsimlanganligi sababli jahon mehnat bozori tez rivojlanadi. Mehnat bozorida kelgindilar taklifi tez o'sadi, narx arzonligidan unga taklif ham ortadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda yer yuzida o'zi tug'ilgan yurtda ishlamaydiganlar soni 80 mln. nafardan ziyod bo'lgan. Xalqaro mehnat bozori kengayishi rivojlangan mamlakatlarda o'zga millat diasporasi o'sishiga olib keladi. Masalan, 2002 yilda AQSHdagi xitoyliklar 15 mln. bo'lgan¹.

Hozirgi vaqtda o'tish davri iqtisodiyotining oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini samarali shakillantirish va rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlaridan savodli foydalanish zarur.

Mehnat bozori bozorning boshqa tizimchalari bilan uzviy bog'langan. Haqiqatdan ham talabga ega bo'lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim. Nafaqat o'zini qayta ishlab chiqarish, balki mehnat resurslari va butun aholining sifat ko'rsatkichlarini ham yaxshilanishini oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo'q qilishi mumkin.

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 5-tom

Ishchi kuchiga jami talab - investisiya va ishlab chiqarish hajmlari bilan tartibga solinadi.

Mehnat bozori – bu, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band boʻlgan va band boʻlmagan qismlari va ish beruvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida “mehnatga qobiliyatlarini” xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif oʻrtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, koʻp aspektli, oʻsuvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat. Talab agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi va iqtisodiyotning boshqa sohalarining mehnat bozoriga buyurtma etgan, ish haqi fondi, shaxsiy yordamchi xoʻjaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan taʼminlangan **ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif** yollanma sharti bilan ishga ega boʻlishdan manfaatdor boʻlgan qishloq ishchi kuchining **miqdor va sifat** (soni, jinsi, yoshi, maʼlumoti, kasbi, malakasi, millati, ishlab chiqishi, daromadi va boshqalar boʻyicha) **tarkibini ifodalaydi.**

SHuni taʼkidlash joizki, “mehnat bozori” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining tizimtli tadqiqoti mazkur bozorni oʻtish davrida bajariladigan **asosiy vazifalarni** ham aniqlashga imkon beradi:

- ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;
- bozor uslubida xoʻjalik yuritishining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini taʼminlashga bevosita taʼsir koʻrsatish;
- ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga koʻmaklashish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini oʻzgartirish.

“Mexnat resurslarining shakllanishi” tushunchasi ancha vaqtlardan buyon iqtisodiy adabiyotlarda va statistik amalyotda qaror topgan bo`lib, o`ziga xos tor kasbiy atama sifatida ishlatilib kelinadi. Bu tushunchaning nimadan iborat ekanligi haqida umumiy tarzda qabul qilingan, munozara talab qilmaydigan tasavvur yo`q. Biz esa “Mehnat resurslarini shakllantirish” deganda mehnat resurslarining doimiy ravishda yangilanib turishi tushuniladi, deb hisoblaymiz.

Aftidan, “takror ishlab chiqarish” “shakllanish” so`ziga qaraganda tug`riroq bo`ladi. Lekin, odatiy bo`lib qolgan, hamda barkoror bo`lib borayotgan atamalardan voz kechish xam tug`ri bulmasa kerak. Buning ustiga “shakllanish” atamasi axolining takror ishlab chikarilishi bilan mehnat resurslarining takror ishlab chikarilishi urtasida, muxim farklar mavjudligi xakida ilmiy fikrlar borligini xam etirof etishimiz zarur.

Mehnat rusurslarini kandy shakllanishini aniqlash uchun biz:

1. Mehnat resurslarini o`rta yirik yosh guruxlari bo`yicha – mehnatga layokatli kishilar, mehnatga layokatli kishilardan yoshrok va mehnatga layokatli kishilardan kattarok kishilarni;
2. Xar bir gurux aholi soniga, uning o`zgarishiga ta`sir qiluvchi omillar;
3. Mehnat resurslari va aholining o`zgarishidagi tabiiy va mexanik o`zgarishdagi umumiy va o`ziga xos tamoyllarni ko`rib chiqishimiz lozim.

Mehnat resurslarining aksariyat ko`pchilik qismini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi tashkil etadi. Mehnat qilishga layokatli yoshdan katta kishilar, ishlovchi pensionerlar amalda “nol” vazifasini bajaruvchi shaxslar, mehnatga layokatli yoshdan kichik kishilar, ishlovchi o`smirlar mehnat resurslarining salmog`ida u darajada sezilarli rol o`ynamaydi.

Mehnatga layokatli yoshdagi mehnatga kobilyatli aholi. Mexat resurslari tarkibiga I va II guruxdagi ishlaymaydigan nogironlar kirmasligini esda tutgan xolda dastlab biz mehnat qilishga layoqatli yoshdagi aholini, so`ngra uning mehnatga qobiliyatli qismini qarab chiqamiz. Mehnatga layoqatli yoshdagi kishilarning ma`lum qismini sira ishlamagan yoki sog`ligi yomon bo`lganligi uchun ishlashdan to`xtagan kishilar tashkil etadi. Bu o`rinda gap I va II gurux nogironlari haqida

bormoqda, davlat ularni pensiya bilan ta'minlab turadi. Bu kishilar mehnat resurslari tarkibiga kirmaydi. Birok I va II gurux nogironlarining ayrimlari (agar ishlab chiqarishda qulay sharoitlar yaratilsa) ishlashlari mumkin. SHuning uchun xam mehnatga layoqatli yoshdagi ishlashi mumkin bo'lgan davlat tomonidan pensiya yoshi belgilangan yoshgacha fukarolar mehnat resurslariga kiradi (I va II gurux nogironlarining ishlamaydiganlari bundan mustasnodir). Mehnatga layokatli yoshdagi axoli orasida ishlamaydigan nogironlarning soni nisbatan kamrok va nisbatan barkarordir.

Mehnat resurslarining sonini hisoblash chikish sxemasi quyidagi tarzda taqdim etilishi mumkin:

Mehnat resurslari = mehnat qilishga layoqatli aholi mehnat – qilish yoshidagi ishlamaydigan I va II gurux nogironlari – ishlamaydigan imtiyozli pensionerlar + ishlovchi o'smirlar + ishlovchi pensionerlar.

Mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar butun aholining bir qismi bo'lib, ularning soni demografik omil ta'sirida o'zgarib turadi. Ularning qancha bo'lishi tegishli yoshdagi o'lim darajasiga bog'lik bo'ladi. Bu shuningdek, mehnat qilish yoshiga etgan yoshlar bilan pensiya yoshiga etgan fuqarolar soni o'rtasidagi nisbatga xam bogliq bo'ladi. O'lim qanchalik kam bo'lsa va mehnat qilish yoshiga etgan fuqarolar bu yoshdan chiqqan kishilarning o'rtasidagi farq qanchalik yuqori bulsa, mehnat qilish qobilyatiga etgan kishilar soni shunchalik ko'p bo'ladi yoki aksincha.

Mamlakatimiz va boshqa mamlakatlarni tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, farovonlik darajasi va ishlovchi o'smirlar soni bir-biriga teskari bog'likda bo'ladi: farovonlik qanchalik yuqori bo'lsa, o'smirlar shunchalik kamrok ishlaydilar va aksincha bo'ladi. SHu bilan birga, bu bog'liklik vakt o'tishi bilan yuksalib boradi.

Iqtisodiyotning o'smirlar mehnatiga bo'lgan extiyoji ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalarining murakkablashib borishi bilan qonuniy ravishda pasayib boradi – mehnat faoliyati soxasi kengayadi, bunda yaxshi ma'lumot darajasi, kasb tayyorgarligi zarur bo'ladi.

Mamalakatimizda bozor iqtisodiyoti shart sharoitlari asosida islohiy o`zgarishlar boshlanishi bilanoq vaziyat keskin o`zgardi, bu xol kishilarning erkinligi ortishi bilan bog`liq bo`lib, ularga tobora ko`proq imkoniyatlar berila boshlandi, ular uz taqdirlari bilan o`zlari xoxlaganlaricha shug`ullana boshladilar. Ko`plab oilalarning moddiy axvoli og`ir ekanligi xam o`z ta'sirini ko`rsatadi. Qo`shimcha daromad ishlash uchun yoshlar xam, kattalar xam xarakatga tushib qoldilar, bunga iqtisodiyotdagi vaziyat majbur qilgan edi. Xar xil mayda-chuyda xizmatlarni bajarib, xususan, mayda chakana savdo bilan shugullanib pul ishlashning imkoniyatlari paydo bo`ldi. Bu erda shiddat bilan vujudga kelgan ish o`rinlari asosan o`smirlar bilan to`ldi.

Kelgusida o`smirlarning mehnat resurslaridagi ulushi o`smir fuqarolarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga zarar etkazgan xolda ular mehnatidan madaniyatli tarzda foydalanish imkoniyatini beradi.

Ishlamaydigan pensionerlar. Ishlovchi pensionerlar soni xam demografik omil ta'siri ostida karor topadi – bu erda shunday bog`liqlik ko`p bo`lsa, shu yoshdagi ishlovchilar xam ko`p bo`ladi.

Ijtimoiy omillar kishilarning extiyojlari bilan bog`langan bo`ladi yoki ularning qandaydir xislatlarini aks ettiradi. Iqtisodiy omillar ishlab chiqarish extiyojlari bilan xodimlar xizmat ko`rsatish soxalarini ifodalaydi. Ularni 2 tasini ko`rib chikamiz:

Mehnat bozorida ish kuchiga bo`lgan talablar. Talab qanchalik ko`prok bo`lsa, pensionerlarning ishga joylashishlari uchun imkoniyatlar shunchalik ko`prok bo`ladi.

Iqtisodiyotda ish o`rinlarini mavjudligi katta yoshdagi kishilarning jismoniy axvoli, umumta'lim va kasb tayyorgarligini hisobga olgan xolda ular mehnatidan foydalanishi xususiyatlari mos keladi.

Iktisodiyotda xamisha pensiya yoshidagi kishilar mehnatidan foydalanish “nukta”lari bo`ladi. Ular orasida yuqori aqliy malaka ishlatishni talab qiladigan faoliyat turlari xam bo`ladiki, ular insoniyatdan yuqori umumta'lim tayyorgarligini va muayyan amaliy tajribani talab kiladi. Ko`pgina maktab o`qituvchilari, oliy va

o`rta maxsus o`quv yurtlarining muallimlari, shifokorlar, ilmiy xodimlar va boshka yuqori aqliy faoliyat turlari vakillari borki, ular pensiya marrasidan o`tgandan keyin xam muvaffaqiyatli mehnat qilib kelmokdalar. Pensiya yoshining dastlabki 5 yilida (erkaklar uchun 60-64 yosh, ayollar uchun 55 – 59 yoshda) aloxida faollik seziladi.

O`zbekistondagi 80 – yillar oxiri, 90 – yillar boshidagi iqtisodiy o`zgarishlar o`smirlarga xam yuqoridagi sabablarga ko`ra taxminan shunday ta`sir qildi. Kelgusida uzoq muddatli tamoyillarning ta`sir kilishi tobora ko`prok namoyon bo`ladi, ular vaziyatni izga solib pensionerlarning mehnat resurslarini to`ldirishga qo`shadigan xissalarini oshiradi.

Mehnat resurslari yalpi aholining bir qismi sifatida aholining takror ishlab chiqarishi (ya`ni uning doimiy ravishda tiklanib turishi) ni aks ettiradi. SHuning uchun mehnat resurslari sonining dinamikasi, pirovard natijada, aholi soni dinamikasini aks ettiradi. O`smirlar va pensionerlarning mehnat bilan bandlik darajasidagi o`zgarishlar fakat mehnat resurslariga emas, balki aholining soniga xam daxldor. Tug`ilishdagi farqlar darxol axoli sonining oshishiga ta`sir qiladi, mehnat resurslarida esa fakat 16 yildan keyin aks etadi. Qancha kishi pensiya yoshiga yetishi fakat mehnat resurslariga ta`sir kiladi, butun axolining soniga daxldor bo`lmaydi. Mehnat resurslarining aksariyat qismini mehnat qilishga layokatli yoshdagi mehnatga kobiliyatli axoli tashkil etadi. SHuning uchun xam mehnat resurslarining dinamikasiga xos xususiyatlar ko`prok darajada mehnatga layokatli yoshdagi axoli bilan bog`liqdir.

SHunday qilib, biz mehnat resurslari butun axoliga taallukli jarayonlar bilan bevosita bog`liqligini e`tirof etgan xolda, mehnat resurslari dinamikasining ma`lum darajada nisbiy «mustaqilligi» ga e`tiborni karatamiz, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan demografik asosni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. SHu ma`noda «mehnat resurslari» ijtimoiy va demografik rivojlanishni taxlil kilish hamda asoslab berishning o`ziga xos metodologik vositasi bo`lib maydonga chiqadi.

«Mehnat resurslarni taqsimlash» deganda resurslarning xalq xo`jaligida

ishlaydigan qismlari va ishlamaydigan qismlari tushuniladi. O'z navbatida, ishlamaydigan qism mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshdagi o'quvchilarga va shaxsiy yordamchi xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchilarga, harbiy kuchlar safida xizmat qilayotganlarga, ishsizlarga, shuningdek, hech qayerda ishlamaydiganlarga, o'qimaydiganlarga va ish qidirmaydiganlarga bo'linadi. Mehnat bilan bandlik turlari bo'yicha mehnat resurslarini taqsimlashni faqat fuqaro aholi (ya'ni, bunga harbiy xizmatchilar kirmaydi) bo'yicha kuzatish mumkin. Ishlaydigan aholi (mehnat bilan band aholi), o'z navbatida, ayrim tarmoqlar, kasb guruxlari bo'yicha taqsimlanishi, shu jumladan, aqliy va jismoniy mehnat bo'yicha (to'liq yillik bandlik, to'liq bo'lmagan ish kuni, haftasi va hakoza), nihoyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo'yicha qarab chiqiladi.

Respublikamiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishi munosabati bilan sekin-asta ilmiy faoliyatga mehnat resurslarini taqsimlash jihatlari kirmokda va qaror topmokda, ular xalqaro statistik tamoyillar asosida qurilmokda, buning natijasida boshqa mamlakatlarning tegishli ko'rsatkichlari bilan taqqoslashga erishiladigan bo'layotir.

Xalqaro jihatlaridan biri mehnat bilan bandlarni «iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha» taqsimlashdir. Bu jihatning mazmuni iqtisodiy faoliyat turlarining klassifikatori mahsulot va xizmatlar klassifikatori deb belgilangan. Unga xalqaro standart tarmoq tasniflashi va xalqaro asosiy mahsulotlar klassifikatori kiradi, ular BMT ning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Oilaning yordam beruvchi a'zolariga, oilaviy biznesdagi oilalarning a'zolari kiradi, mazkur biznesga o'sha uy xo'jaligida ishlaydigan qarindoshlardan biri boshchilik qiladi. Maqom bo'yicha tasniflanmaydigan xodimlarga shunday fuqarolar kiradilarki, ular uchun turli sabablarga ko'ra o'zlarining qaysi guruxlarga mansubliklarini yaxshi bilmaydilar. Aholining mazkur taqsimlanishida ayrim pozitsiyalar o'rtasidagi nisbat, ya'ni tuzilma demografik omillarni, oilalar farovonligini, iqtisodiyot tuzilmasini, mehnat bozorining ahvolini, mulkchilikdagi tashkiliy o'zgarishlarni va boshqa omillarni aks ettiradi. Albatta, mehnat resurslarini taqsimlanishning boshqa turlari ham bor. Bular jinsi, yoshi, ma'lumot

darajasi, sog'ligi bo'yicha taqsimlashdir. Barcha odamlar o'z qobiliyati va ehtiyojlari bo'yicha turli-tumanligini bir necha bor aytib o'tgan edik. SHuning uchun ham iqtisodiyotning biror sohasidagi samaradorlik ham, ishga bo'lgan ehtiyoj ham bir xil emas. YUqorida aytib o'tgan ta'riflar bu har xillikni ma'lum darajada farqlab olish va uning oqibatlarini tushunish imkonini beradi.

Mehnat resurslarini taqsimlash turlaridan biri mamlakat xududi bo'yicha taksimlash bo'lib, u xam muayyan foydali axborotga ega bo'ladi. Respublika xududi iqtisodiy rivojlanish darajasi kishilarning farovonligi va demografik rivojlanishi bilan farq qiladi. Masalan, Farg'ona vodiysi viloyatlarning Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari bilan bo'lgan farqi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu farqlar xududlardagi mehnat resurslarining o'ziga xos shakllanishi va ulardan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyatni bilish mehnat resurslari haqidagi tasavvurni boyitadi va shu sababli mintaqaviy darajadagi mehnat munosabatlari sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Pirovard natijada barcha mehnat muammolari qandaydir bir xudud bilan bog'liq bo'ladi.

Mehnat resurslarini shakllantirishning mintaqaviy xususiyatlari, avvalo, demografik va sosial-iqtisodiy omillarning ta'siri bilan bog'liqdir. Demografik omillarga aholining takror ishlab chiqarilishidagi jadallik kiradi, u hal qiluvchi darajada tug'ilish darajasi bilan bog'liqdir. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi, demak mehnat resurslari shunchalik tez o'sadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillardan mehnat resurslarini shakllantirish uchun ancha ahamiyatlisi mintaqadagi ishlab chiqarish va iqtisodiy konyunktura tuzilmasining xususiyatlari (mehnat unumdorligining o'sishi) ni aytib o'tish mumkin. Bu hol ishlovchi o'smirlar va ishlovchi pensionerlar soniga ta'sir qiladi. Ish o'rinlarining ayniqsa, o'smirlar va katta yoshdagi ishlovchilarning mehnatdan foydalanishga mos keladigan ish o'rinlarining mavjudligi ishlab chiqarish tuzilmasi bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy konnyuktura ish kuchiga bo'lgan talabni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bu bilan mehnat sohasi kengayadi yoki torayadi, tegishli

ravishda qarab chiqilayotgan mehnat resurslarining ishlashi uchun imkoniyatlar ko`proq yoki ozroq bo`ladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlari ham demografik va ijtimoiy iqtisodiy omillarining amal qilishi bilan bog`liqdir. Mehnat resurslaridan foydalanish tomonlaridan biri mehnat resurslarini taqsimlash bo`lsa, ikkinchi tomoni mehnatni tatbiq etish samaradorligidir.

Mehnati resurslarini taqsimlash demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy shart-sharoitlari ta'siriga ancha ko`proq uchraydi. Demografik omillarning ta'siri aholining yosh tuzilishi orqali namoyon bo`ladi, u odatda turli mintaqalarda turlicha bo`ladi. Mehnatga layokatli yoshdagi kishilarni ishlaydigan va ishlaymaydigan qismlarga bo`linishi ma'lum darajada ana shu bilan belgilanadi. Aholi tarkibidagi kichik yoshli bolalar sonining ko`payishi o`zlarini uy-ro`zg`or ishlariga bag`ishlaydigan ayollar soniga ta'sir ko`rsatadi. Tajriba shundan dalolat beradiki, bu ikki ko`rsatkich o`rtasida bevosita bog`liqlik bor. Ishlaymaydiganlarning anchagina qismini mehnat qilish yoshidagi o`quvchilar tashkil etadi. Ularning qancha bo`lishi tegishli yoshdagi yoshlarning soniga bog`liqdir. Ijtimoiy iqtisodiy omillardan eng ahamiyatlilari: iqtisodiy konjunktura va ishlab chiqarish tuzilmasidir. Iqtisodiy konjunkturaga ishsizlar soni, ishlab chiqarish tuzilmasiga esa xodimlarning tarmoklar bo'yicha, kasblar, ish kuchining kasbiy tayyorgarligi bog`liq bo`ladi. Mehnatni sarf qilish samaradorligi bo'yicha mintaqalar farqiga sabab shuki, turli xududlarda texnologiya darajasi, mehnatni tashkil etish darajasi turlicha bo`ladi. Turli sabablarga ko`ra ham xodimlar malakasi bir-biridan farq qilishi mumkin. Mehnat resurslari shakllanishining va ulardan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish mehnat resurslarini o`rganishning eng muhim tomonlaridan biridir. Masalaning bu tomonini bilish mehnat munosabatlarini, mehnat bozorini davlat yo`li bilan samarali boshqarish uchun zarur bo`ladi.

1.2. Mehnat resurslaridan foydalanishning mohiyati va vazifalari

Mehnat bozorida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida aholining ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarini belgilash, u yoki bu ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy-mehnat mojarolarini bartaraf etish bo'yicha ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlar markaziy o'rin egallaydi. Mehnat bozorida mazkur munosabatlar jamoaviy, shaxsiy va hududiy usullar asosida tartibga solinadi. Jamoaviy bitimlar tuzilayotganda O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasi va tavsiyalariga asoslaniladi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasida (54-bandida) ta'kidlanganidek, "Jamoaviy muzoqaralar, bir tomondan, tadbirlar, tadbirkorlar guruhi bilan, boshqa tomondan esa, mehnatkashlarning bitta yoki bir necha tashkiloti o'rtasida: a) mehnat sharoiti va bandlikni belgilash; b) tadbirkorlar va mehnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish; v) tadbirkorlar yoki ularning tashkilotlari va mehnatkashlarning tashkiloti yoki tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida olib boriladigan barcha muzoqaralarni bildiradi".

Mehnat bozorida bunday tartibga solishni qo'llanishning eng muhim afzalligi shundaki, unda qabul qilinadigan qarorlar nihoyatda qayishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) bo'ladi, ularni na qonunchilik, na sud va na ma'muriy usullarga qiyoslab bo'lmaydi.

Xodim bilan tuzilgan shaxsiy shartnoma ish beruvchisi uchun ancha foydalidir. SHaxsiy shartnoma tizimi mehnatchining mehnat sharoiti va unga to'lanadigan ish haqini shu odamga qarab belgilash imkonini beradi. Jamoaviy bitimlarga ko'ra esa, bunday qilib bo'lmaydi. SHu bilan birga, tuziladigan shaxsiy bitim ko'p hollarda mehnatkashlarni ijtimoiy kafolatlarining kattagina qismidan mahrum etadi.

Mehnat munosabatlarini shaxsiy uslubda tartibga solish va bandlikning qayishqoq shakllarini joriy etish – mehnatkashlar kuchidan foydalanish (ekspluatasiya xarakterida) kuchaytirish hamda doimiy ishlovchi shaxslar uchun

ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy kafolatlardan voz kechilishidan tashqari yana bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, rivojlangan mamlakatlardagi mehnat bozorlarida doimiy ishchi kuchlarini vaqtincha yoki to'liqsiz ish vaqtida ishlovchi shaxslar (yoshlar, xotin-qizlar, nogironlar va hokazo) bilan almashtirish qoida tusiga kirmoqda. Tabiiyki, mazkur ijtimoiy guruhlarining vakillari ijtimoiy jihatdan kam muhofazalangan va jamoaviy shartnomalar bilan qamrab olinmagan. SHu bois davlat ayniqsa, xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida yollashning shaxsiy sharnoma shakllari rivojini nazorat qilib borishi kerak. Aks holda, norozilik kuchayishi natijasida davlat ishsizlik bo'yicha ijtimoiy to'lovlarni ancha ko'paytirishga majbur bo'lib qoladi.

So'nggi holatni alohida hisobga olishimiz lozim. CHunki, respublikamizda, bir tomondan, ishchilarni yollab ishlatish bo'yicha xususiy tadbirkorlik va biznes yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, kam ta'minlangan hamda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan mehnatkashlar orasida ishsizlar soni oshib borayapti.

Bularning hammasi mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi, samarali hududiy usullarini, ularni mehnat resurslari ortiqcha va yetishmaydigan hududlarga bo'lgan holda, tadqiq etishni talab qilmoqda.

Respublikaning mehnat resurslari ortiqcha hududlari, avvalo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari deb, ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishi va uning taklifi kamayishini hisoblash zarur.

Mazkur usullar nimalarda ifodalanishini batafsil ko'rib chiqaylik:

a) ishchi kuchiga talabning oshirish usuli.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish, zarra keltirib ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv

texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan ishlab chiqarishdan bo`shatilayotgan xodimlar – mehnatkashlar salmog`i ko`paymoqda.

Ishchi kuchiga bo`lgan talabni oshirishni rag`batlantirish usullarini tadbiq etish – mehnat resurslarining oqilona bandligini ta`minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko`rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo`yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan`anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektoridagi ishdan vaqtincha bo`shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta ta`mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish maqsadida to`g`ridan-to`g`ri investisiyalar – sarmoyalar qo`llanishining asosiy yo`nalishlaridir.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta`mirlash va yangi zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to`g`ridan-to`g`ri jalb etish orqali tartibga solish mumkin. Dotasiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agrosanoat majmuidagi korxonalarni, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayt aqrollntirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnatfaoliyatini rivojlantirish yo`li bilan ximat ko`rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko`p bolali ayollar. Mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o`smirlar va boshqalarga mos ish joylarini vujuga keltirishga yo`naltirish maqsadga muvofiq. SHu tariqa ortiqcha mehnat resurrlarini yuqorida aytib o`tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy va malaka tarkibiga bevosita ta`sir o`tkazish mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish, aholi bandligini oshirishning jng muhim yo`nalashlaridan biri. U korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, budjet to`lovlari va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug`urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning

noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini to'lash chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi;

b) ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.

Ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirish, shuningdek, ularni mehnat bozoriga oqib kelishini qisartirish va boshqa joyga ketishni rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali tashkil etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta'lim dasturlarini kengaytirish va o'qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quv yurtlarida kunduzgi ta'lim oladigan talaba o'rinlarini ko'paytirish hamda sirtqi o'quvdagi talaba o'rinlarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan ajralagan holda o'qiyotganlarga stipendiyalarni oshirish, ayolarga bola parvarish uchun to'lanadigan nafaqalar va beriladigan ta'lim muddatini ko'paytirish. Mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish; pensionerlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning pensiyalarini oshirish – mehnat bozorida ishchi kuchlarini oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o'tishlarini rag'batlantirishga ulargaham ish bilan to'la band qilingan shaxslarga mo'ljallangan ijtimoiy ta'minotning turlarini, ta'tillar va ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o'rnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta'minlash, har yili beriladigan ta'tillarni o'z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning ishchi kuchi yetishmaydigan mintaqalari (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi)da ishchi kuchlariga talabni kamaytirish hamda ular taklifini ko'paytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usullaridir.

Ushbu usullarning mohiyati quyidagilardan iborat:

a) ishchi kuchlariga talabni kamaytirish usullari

Usullarning mazkur guruhiga hududiy hokimiyatlarning u yoki bu

mintaqalarda va tarmoqlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va yangi ish joylarini vujudga keltirishni sekinlashtirishga oid quyidagi chora-tadbirlar: ortiqcha ishchi kuchlaridan foydalanganlik uchun qo`shimcha soliqlar belgilash; qat'iy kredit siyosatini o`tkazish; korxonaga xodimni ishga olganlik uchun bir martalik to`lov joriy etish; ortiqcha ishchi va xizmatchilarni qisqartirishni rag`batlantirish va hokazolar kiradi. Bundan tashqari, ishchi kuchlariga talabni kamaytirishda mehnat unumlorligini oshirish va tejamkorlikka erishishi muhim ahamiyatga egadir.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan unumli foydalanish – raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi umumxo`jalik mexanizmlari va dastaklari yordamida ta'minlanishi lozim. Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishshi samaradorligini oshirishni rag`batlantirishning umumxo`jalik mexanizmlari yaxshi takomilashtirilmaganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchunilgari joriy qilingan to`lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko`maklashadi. Bu xil to`lovlar korxona va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari saqlash uchun qat'iy stavka shaklida o`rnatiladi. SHu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar o`rnini qoplash uchun ijtimoiy sug`urta solinadigan maxsus soliq (ikkalasi ham – mehnatga haq to`lash fondidan foizlarda)dan foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatning ko`pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi fonli mehnatdan foydalanishning intensiv shakllarini ifodalaydi hamda mehnat bozoridagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlarni yaratadi;

b) ishchi kuchlari taklifini ko`paytirish usuli.

Hozirgi shart-sharoitlarda mehnat byurosiga ishchi kuchlari taklifini mutloq ko`paytirishga qayta ishlash sanoati va xizmat ko`rsatish tarmoqlari va shoxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalarining rivoji jiddiy to`siq

bo`lishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka strukturasi bo`yicha hudud iqtisodiyotining noqishloq ishlab chiqarish tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o`sinh sur`atiga javob bermaydi. SHu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko`rsatkichlarini o`zgartirish hamda uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati tizimidagi va boshqa o`quv yurtlaridagi xodimlarning malakasini oshirishni tashki etish, korxonalarning o`zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o`rgatishni yaxshilash va ularga soliy to`lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishninshg maqsadli maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Ishchi kuchlari taklifini rag`batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo`llash orqali ham amalga oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo`lib, bo`sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o`qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma`lumotlar bankini tashkil etishni, aholini ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta`minlashni, ishsizlarni ro`yxatga va hisobga olishni, kasbga yo`naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o`tkazish kabi yo`nalishlarni qamrab oladi. Mehnat resurslarni qayta taqsimlashning ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishni alohida ajratib ko`rsatib o`tish mumkin. Mazkur uslublar hududlarning moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy shart-sharoitlarini hamda, madaniy-maishiy xizmat ko`rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarini o`tkazib, ularni tartibga solish asosida tadbiriq etiladi.

1.3. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasida aholi bandligi muammolari

Mintaqaning ijtismoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish bo`yicha har qanday hujjatning pirovard maqsadi ushbu mintaqa aholisining farovonligini

oshirish hisoblanadi. Bunday maqsadga avvalambor mintaqaholisining oqilona bandligini ta'minlash orqali erishish mumkin. Binobarin, mintaqarivojlanishi strategiyasida aholi bandligi bo'limiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi.

Albatta, aholi bandligini ta'minlash strategiyasi (yoki strategik hujjatning aholi bandligi bo'limi) mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi va sharoitlari, uning mehnat va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatning tarkibi ham ushbu sharoitlardan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Ammo, shunday talablar borki, ularni bajarmasdan ushbu strategiya to'laqonli hisoblanmaydi. Strategiyaning aholi bandligi bo'limi va uning tarkibini ishlab chiqish algoritmi 1 rasmda keltirilgan.

Aholi bandligini ta'minlash bo'limining kirish qismi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha strategik tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini asoslashni va ushbu bo'lim maqsad va vazifalarini belgilab olishni o'z ichiga oladi.

Keyin esa mintaqaholisi bandligidagi vaziyat va mavjud sharoitlar tahlil qilinadi. Strategiyaning bosqichi doirasida mintaqamehnat bozori kon'yunkturasi, uning qismlaridagi o'zgarishlar tendensiyasi, ishsizlik darajasi, bandlikning hududiy va tarmoqxususiyatlari tahlil qilinadi, hamda aholi bandligining ichki va tashqi omillarini baholash amalga oshiriladi h.k. Bundan tashqari mintaqaiqtisodiyoti turli tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham tahlil qilish zarur bo'ladi. Ushbu tahlilning natijalaridan bandlik strategiyasining ustivorliklarini aniqlash uchun o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilishda ham foydalanish mumkin.

Aholi bandligining miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun axborot bazasi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining №106 "Ishga joylashishga muhtoj bo'lgan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qaroriga asosan o'tkaziladigan aholi bandligini har chorakda o'rganish (monitoringi) natijalari xizmat qiladi, chunki u O'zbekiston mehnat bozoridagi holatni ob'ektiv va kompleks ravishda aks ettirib beradi, bu esa

hududlar kesimida ushbu tahlilning vazifalari sifatida juda muhim ahamiyatga egadir.

Startegiyani shakllanitirishning keyingi bosqichida mintaqaning aholi bandligini ta'minlashdagi raqobatlik afzalliklari va imkoniyatlarini; mintaqaviy aholi bandligini ta'minlashda to'siq bo'luvchi omillarni; ushbu sohadagi mumikn bo'lgan salbiy omillar va holatlarni o'z ichiga olgan SWOT-tahlil o'tkaziladi. O'zbekiston sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining an'anaviy sharoitlari va imkoniyatlariga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi.

Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, strategiya o'z ichiga bashorat usullari bilan hisoblanadigan bandlikning muayyan ko'rsatkichlariga erishishni ham ko'zlashi mumkin. Ammo, bizningcha bu vazifa har qanday strategik hujjat uchun yoki shunday hujjatlarning bandlik qismi uchun zaruriy hisoblanmaydi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqishning bosqichlari

- muammoning dolzarbligini asoslash;
- bandlik strategiyasining maqsadlarini asoslash;
- vaziyatning va boshlang'ich sharoitlarning tahlili;
- mehnat bozori ko'rsatkichlarini baholash;
- aholi bandligining ichki va tashqi omillarini baholash;
- mintaqada aholi bandligini ta'minlashning imkoniyatlari va muammolarini aniqlash (SWOT-tahlil);
- maqsad parametrlarini aniqlash;
- strategik yo'nalishlarni aniqlash;
- chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mintaqa aholisi bandligini ta'minlashning strategik yo'nalishlarini belgilash yuqorida ko'rsatilgan algoritmning oldingi bosqichlari natijalari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlari mintaqada oqilona bandlikka erishishni

ta'minlaydigan strategik tadbirlar ko'rinishida qismlarga ajratilishi mumkin.

Algoritmning oxirgi bosqichi mintaqa aholisi bandligi strategiyasi asosiy maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan davlat hokimiyati idoralarining, bandlik xizmatlarining va boshqa manfaatdor muassasalarning samarali hamkorligini ko'zda tutadigan strategik harakatlarni amalga oshirish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Endi bitta mintaqa – Xorazm viloyati misolida o'rta muddatli davrga aholi bandligini ta'minlashning strategiyasini ishlab chiqishga yondoshuvlarni ko'rib chiqamiz. Bu yerda shuni ham aytib o'tish kerakki, agar aholi bandligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik hujjatlari doirasida belgilanadigan bo'lsa, unda u ushbu hujjatning ustivor maqsadlari va vazifalariga mos kelishi kerak.

Xorazm viloyati mehnat resurslarining soni bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi. Ushbu ko'rsatkich barqaror o'sib bormoqda, va keyingi 10 yilda deyarli 30 foizga oshdi. SHuni aytib o'tish kerakki, ushbu davrda viloyat mehnat resurslarining o'sish sur'atlari hamisha o'rtacha respublika ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan.

Keyingi yillarda mintaqada band bo'lganlarning soni barqaror o'sib borayotganligi kuzatilmoqda: 2000-2009 yillar davrida band bo'lganlarning soni 33, 1 foizga o'sdi. Ammo, shunday o'sish ham, yuqorida aytib o'tilgan mehnat resurslari sonining yuqori sur'atlarda o'sishi tufayli mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilay olmadi. Agar ishchi o'rinlarining muayyan o'sishi ta'minlanmasa, yaqin kelajakda mehnat resurslarining barqaror o'sib borishi mintaqa mehnat bozoridagi vaziyatni keskinlashtirishi aniq bo'lishini aytib o'tish mumkin.

Mustaqillik yillarida viloyat aholisi bandligining tarmoq tarkibida mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishga mos ravishda ijobiy siljishlar va ishlovchilarning tarmoqlararo taqsimlanishi kuzatilmoqda. Ammo, mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan – sanoatda bandlar ulushi pastdir, agrar sektor esa viloyatning hamma tumanlarida mehnat sig'imi yuqori bo'lgan soha bo'lib qolmoqda.

Korxona va tashkilotlarning ishchilarga bo'lgan ehtiyoji 2005-2008 respublikada 1,9 barobarga oshgan bo'lsa, viloyatda yillarda 8 barobarga oshdi. Bunday o'sishga erishishda asosan kichik biznes va kasanachilikning o'rni juda yuqori bo'ldi, va uning yangi yaratilgan ishchi o'rinlari sonidagi hissasi 2009 yilda 75 foizni tashkil qildi.

Yangi yaratilgan ish o'rinlarining hududiy tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki ular vildoyatning tumanlari bo'yicha notekis taqsimlangandir. 2009 yilda yaratilgan ish o'rinlarining uchdan biridan ko'pi viloyatning bor-yo'g'i 3 ta ma'muriy tumanlariga to'g'ri keladi

Viloyatda 2009 yilda yaratilgan ish o'rinlarining 80 foizdan oshig'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. Qishloq aholisi bandligini oshirishda keyingi yillarda respublikada qabul qilingan Hukumat Qarorlari va davlat dasturlari, xususan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatish va bartaraf qilish bo'yicha dasturlar va "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturlarini bajarilishi juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2008 yilda viloyatda ishga joylashtirilgan fuqarolar soni oldingi yilga nisbatan 20,6 foizga oshdi. Bu mintaqalar ichidagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, o'rtacha respublika ko'rsatkichidan ikki barobarbar oshiqdir. 2009 yilda esa band bo'lmagan aholini ishga joylashtirishda o'sish kuzatilmadi. Natijada shu yili viloyatda ishsizlar soni oshdi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra viloyatdagi ishsizlik darajasi respublikadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi. SHunisi achinarliki, bunday vaziyat viloyatda yuqorida aytib o'tilgan yangi ish o'rinlari yaratilishi va ish bilan band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish yuqori bo'lgan holatda yuz bergan. Bu shundan dalolat beradiki, mehnat resurslari sonining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida mehnat bozoriga bo'lgan bosim oshib bormoqda.

Mintaqada bandlik muammosi ayniqsa qishloq aholisi uchun juda dolzarbdir. Mehnat resurslari balansiga ko'ra qishloq joylaridagi ishsizlarning ulushi iqtisodiy faol aholi tarkibidagi qishloq aholisi ulushidan kattadir. Bunday vaziyat,

avvalambor, agrar sektordan bo'shab qolganlarni qishloq joylaridagi iqtisodiyotning boshqa sohalariga ishga joylashtirishning cheklanganligi bilan izohlanadi. Natijada yashirin ishsizlik va ro'yxatga olinmagan bandlik miqyoslarining oshib ketishiga olib keladi, binobarin qishloq aholisining ijtimoiy muhofaza qilinmagan qismi ko'payadi.

Viloyatda ishsizlikning asosiy sabablaridan biri mintaqa mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning nafaqat miqdoriy, balki tarkibiy nomutanosibligi hisoblanadi, ular esa quyidagi omillar va vaziyatlar tufayli paydo bo'ladi:

- bo'sh ish o'rinlari bilan band bo'lmaganlarning kasbiy malakaviy va demografik xususiyatlari mos kelmasligi;
- mehnatga bo'lgan talabni yuzaga keltiruvchi hududlar bilan band bo'lmagan ishchi kuchlarining asosiy qismi mavjud bo'lgan, masalan, shahar va qishloq hududlarining, bir-biriga mos kelmasligi;
- ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan izohlanadigan, ishchi kuchlarining tarmoqlararo harakatchanligini pastligi.

SHuni aytib o'tish kerakki, mehnat bozoridagi nomutanosibliikni bartaraf qilish ancha murakkab muammo bo'lib, uni hal qilish ishchi kuchlarining sifatini yaxshilash va kasb-hunar ta'limi tizimining iqtisodiyotning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga mosligi darajasini oshirish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra viloyatning 40 mingdan oshiq fuqarosi respublikadan tashqarida mehnat faoliyati olib bormoqda. Tashqi mehnat migrasiyasi miqyoslariga ko'ra viloyat respublikada ikkinchi o'rinni egallaydi.

Mehnat migrasiyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra mehnat migrantlarining 40 foizdan oshig'i o'zlarining chetga ish qidirib ketishlarini o'z hududida yaxshi haq to'lanadigan ishlarning yo'qligi bilan izohlaydilar. Mana shuni nazarda tutgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, mintaqaning mehnat migrasiyasi sohasidagi muammolarini samarali boshqarish

mahalliy mehnat bozorlarida ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'p miqdorda oshirmasdan hal qilib bo'lmaydi.

Tahlil davomida aniqlangan muammolarni hal qilish uchun Samarqand viloyati mehnat bozori amaliyotining xususiyatlari va tendensiyalarini hisobga oluvchi bandlikni ta'minlashning aniq strategiyasi zarur bo'ladi.

SWOT-tahlilni ishlab chiqishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan bandlik va mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilishning natijalari hisobga olindi.

Viloyatning raqobat afzalliklari:

- mintaqa mehnat resurslarining soni uning iqtisodiyoti me'yorida faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli miqdorga egadir;
- hududda yangi ish o'rinlari yaratish va ishsizlik ko'rsatkichlari muvozanat holatidadir;
- iqtisodiyot bandlar sonining barqaror o'sib borishi;
- viloyat aholisi bandligini ta'minlashda xususiy biznes va kasanachilikning katta o'rin tutishi;
- viloyat mehnat resurslarining yuqori ilmiy salohiyati va ma'lumotlilik darajasi;
- aholi bandligi tarmoq tarkibining yaxshilanish tendensiyalari.

Viloyatning aholi bandligini ta'minalashdagi imkoniyatlari:

- mehnat talab ishlab chiqarishlar rivojlanishini intensivlashtirish natijasida mavjud ish o'rinlarining barqarorligi oshishi;
- * qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga imkon beruvchi ayrim sohalarni (masalan, turizm) rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni qabul qilish;
- * ilmtalab yuqoritehnologiyali tarmoqlarda samarali bandlikni rag'batlantirish;
- kasanachilikni rivojlantirish hisobiga bandlikni oshirish.

Oqilona bandlikni ta'minlashga to'siq bo'luvchi omillar:

- mehnat resurslari o'sishining yuqori sur'atlari;

- ishga joylashtirishga muhtoj boʻlgan, band boʻlmagan aholi sonining oʻsib borishi;
- mehnat unumdorligi past boʻlgan tarmoqlarda, xususan qishloq xoʻjaligida band boʻlganlarning yuqori ulushi;
- mehnat talab tarmoqlar salohiyatidan kam foydalanish;
- mintaqa mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning sifat jihatdan nomutanosibligi;
- tarmoqlararo ishchi kuchlarining koʻchib yurishi tufayli malakasini yoʻqotish yoki kamaytirish

Ehtimoli boʻlgan salbiy omillar va holatlar:

- mintaqa mehnat bozorida mehnat resurslari oʻsib borishi natijasida vaziyatning murakkablashuvi;
- yashirin ishsizlikning va roʻyxatga olinmagan bandlikning oshib boriishi;
- obʻektiv omillar taʼsirida ayrim sohalarda ishchi kuchlarini toʻplashning kamayib borishi;
- mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif nomutanosibligining murakkablashuvi;
- qishloq joylarida ishsizlikning oshishi;
- tashqi mehnat migrasiyasining kengayib borishi.

Mintaqaning aholi bandligi sohasidagi siyosati strategik jihatdan ish oʻrinlari oʻsishining barqarorligini taʼminlash va ularning mustahkamligini oshirishga qaratilgan boʻlishi kerak. Bunday zarurat mintaqada mehnat resurslari oʻsishining barqaror yuqori surʼatlari bilan izohlanadi – faqat bandlikning barqaror oʻsishi va ish oʻrinlarining turlarini koʻpaytirish mintaqa mehnat bozoriga bashorat qilinayotgan va demografik va iqtisodiy tendensiyalar tufayli oshib boradigan bosimni bartaraf qilishi mumkin.

Mintaqada ishlab chiqilayotgan aholi bandligi dasturlari, mehnat bozorini tartibga solishning oʻzaro bogʻliq boʻlgan faol va passiv tadbirlarini qamrab olgan boʻlishi kerak. Strategik jihatdan esa band boʻlmagan mehnatga yaroqli aholining turli qatlamlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim oʻrin tutadi.

Viloyat mehnat resurslarining hudud bo'yicha (tumanlar/shaharlar) notekis taqsimlanganligi aholi bandligining hududiy dasturlarini ishlab chiqishda va investisiya dasturlarini amalga oshirish uchun ustivor hududlarni aniqlashda mos ravishda e'tibor qaratishni talab qiladi. Xuddi shunday tarzda uzoq vaqt davomida yuqori ishsizlik darajasi kuzatilayotgan hududlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

Mehnat bozorining tarkibiy muvozanatligini ta'minlashning uzoq muddatli strategiyasining asosini iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan o'rta va uzoq muddatli ehtiyojini hisobga oluvchi kasbiy ta'lim konsepsiyasi tashkil qiladi. Bundan tashqari, mahalliy mehnat bozorlarida yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda tumanlar(shaharlar) kesimida va butun mintaqa miqyosida kasb-hunar o'quv yurtlarida bitiruvchilarni sifatli tayyorlash va ularni ishga joylashtirish bo'yicha hududiy dasturlarni yilda qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Ishchi kuchlarining tarmoqlararo harakati zaifligi, ko'pchilik band bo'lmagan aholiga xos bo'lgan mehnat bozorida raqobatbardoshligining pastligini hisobga olgan holda kadrlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitish dasturlarini kengaytirish zarur bo'ladi. Bunda rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladigan korxonalar va ish beruvchilar vakilliklari buyurtmasi bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlashni tashkil qilishni ko'zda tutuvchi, ish qidirayotganlarni qayta tayyorlashni tashkil qilish juda usullari samarali bo'ladi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasining muhim vazifalaridan biri bandlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha oqilona taqsimlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bandlik tarmoq tarkibining joriy holati ijobiy tendensiyalarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni kengaytirishni, xususan qishloq xo'jaligida bandliar sonini qisqartirishni, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa istiqbolli tarmoqlar xodimlarining sonini oshirishni talab qiladi.

Qishloq joylaridagi yuqori ishsizlikning darajasi qishloq tumanlari aholisining bandligini asosan qishloq xo'jaligiga muqobil bo'lgan tarmoqlar va sohalarda oshirishning maxsus dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu dasturning ustivor yo'nalishlaridan biri qishloq joylarida kasanachilikni, hamda kichik

biznesni, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'lishi kerak.

Mintaqa aholisi bandligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning dasturi aholini bandlik sohasidagi axborotlar bilan ta'minlashni kengaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ham ko'zda tutishi kerak bo'ladi. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarda nafaqat ushbu tumanda, balki boshqa tumanlarda va viloyat markazida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish zarur bo'ladi. Qishloq aholisining ish qidirish imkoniyatlarini to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lishini oshirish uchun qishloq fuqarolar yig'ini qoshidagi aholini ishga joylashtirish stasionar punktlarining axborot salohiyatini kuchaytirish talab etiladi.

2 - BOB. VILOYATDA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

2.1. Viloyatda mehnat bozori shakllanishining demografik jixatlari

Mehnat resurslarining rivojlanishi ko'p jihatdan aholiga bog'liqdir. Aholi mehnat resurslari rivojlanishining tabiiy asosi hisoblanadi. Aholi va mehnat resurslari bir butun hisoblanishadi, lekin shu bilan birgalikda, ular o'zlarining kelib chiqishi, amal qilishi va rivojlanishida o'zaro bohliq bo'lgan ikki mustaqil sub'ektdir. Jamiyatning mehnat resurslari mamlakat aholisi hisobiga shakllanadilar. Aholi va mehnat resurslarini tashkil qiluvchi odamlar ko'p jihatdan unga ham, bunga ham taalluqli bo'ladilar.

Aholi va mehnat resurslarining umumiyligi aholining jinsiy tarkibi bilan mehnat resurslarining shakllanishi bog'liqligida ham namoyon bo'ladi. Aholi tarkibida erkaklar ulushining kam bo'lishi mehnat resurslarining sonini qisqartirib yuboradi, chunki erkaklarning yuridik va haqiqiy mehnat faoliyati davri ayollarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Mehnat resurslari va aholining yaxlitligi shu bilan belgilanadiki, ularning o'zgarib turishi butun insoniyatning oldingi rivojlanishi natijasidir. Aholi va mehnat resurslarining rivojlanishi umuman bir-biriga mos keladi, lekin shu bilan birgalikda, bu jarayonlarning kechishida muayyan farqlar ham mavjud bo'ladi.

Aholi va mehnat resurslari o'rtasidagi farq, yana ular sonining o'zgarib turishi vaqt nuqtai nazaridan mos kelmasligidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 1991 yildan 2011 yilgacha aholi soni 20607,7 ming kishidan 29123,4 ming kishigacha, ya'ni 141,3 foizga oshgan bo'lsa, bu davrda mehnat resurslarining soni 10122,5 ming kishidan 17309,8 ming kishigacha, ya'ni 171,0 foizga oshdi. O'rtacha yillik o'sish sur'atlari aholi bo'yicha 2,1 foizni,

mehnat resurslari bo'yicha 3,6 foizni tashkil qildi. Xuddi shunday tarzda Xorazm viloyatida ushbu davrda aholi sonining yillik o'sish sur'atlari 2,3 foizni, mehnat resurslariniki esa 4,0 foizni tashkil qildi. SHunday qilib, ko'rinib turibdiki, aholi soni o'sish sur'atlari bilan mehnatga yaroqli aholi o'sish sur'atlari mos kelmasligi mumkin. Ularning o'zgarishi hatto, turlicha yo'nalishga ega bo'lishi ham mumkin.

Viloyat aholisining 2000-2011 yillardagi demografik rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, tug'ilish ko'rsatkichlari ham, o'lim ko'rsatkichlari ham barqaror sur'atlarda saqlanib turibdi. Natijada aholining tabiiy o'sishida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermagan (2.1.1-jadval).

!992 yildan 2010 yilgacha viloyat aholisi 847, 3 ming kishidan 1204,3 ming kishigacha, ya'ni 142, 1 foizga ko'paydi. Yillik o'sish sur'atlari 2,2 foizdan oshiqni tashkil qildi (2.1.2-jadval). Viloyat tumanlarida aholi sonining o'sish sur'atlari bir-biridan biroz farq qilishi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida eng yuqorni o'sish sur'atlariga Xazarasp (176,8 foiz), Xiva (153,3), Urganch (152,6) tumanlari ega bo'ldi. Eng past o'sish sur'atlari YAngiariq (108,9), Bog'ot (122,6) tumanlarida mavjud bo'ldi. Xazaraspda bunday yuqori sur'atlarning mavjud bo'lishi 2003 yildan Pitnak qishlog'ining Xazarasp tumaniga qo'shib yuborilganligi bilan izohlanadi. YAngiariq va Bog'ot tumanlarida aholi soni o'sishida past sur'atlarning namoyon bo'lishi 2009 yilda shu nomdagi qishloq markazlarining shaharchaga aylantirilishi tufayli tumanda qishloq aholisi kamayganligi bilan izohlanadi.

**Xorazm viloyatining 2000-2011 yillardagi demografik ko`rsatkichlari²,
ming kishi**

Yillar	O`rtacha doimiy aholi soni	Tug`il- ganlar soni	O`lganlar soni	Tabiiy o`shish	Kelganlar soni	Ketganlar soni	Migrasiya saldosi	Axolining yillik o`rtacha o`shishi, foizda	Viloyat aholisi-ning respublika aholisida-gi hissasi
2000	1335,8	32,1	7,0	25,1	7,2	8,6	- 1,4	1,87	5,42
2001	1358,5	30,4	6,6	23,8	6,4	8,5	- 2,1	1,70	5,44
2002	1380,1	31,1	6,8	24,3	5,6	8,3	- 2,7	1,59	5,46
2003	1400,6	29,2	7,0	22,2	5,4	8,2	- 2,8	1,48	5,48
2004	1421,5	32,0	6,5	25,5	6,3	9,3	- 3,0	1,49	5,50
2005	1443,3	31,3	6,7	24,6	6,4	10,0	- 3,6	1,53	5,52
2006	1465,8	33,2	6,9	26,3	5,7	8,1	- 2,4	1,56	5,53
2007	1491,0	36,4	6,9	26,5	5,8	8,7	- 2,9	1,72	5,55
2008	1517,5	35,3	7,3	28,0	6,0	7,5	- 1,5	1,78	5,56
2009	1546,2	39,3	6,7	32,6	5,9	7,6	- 1,7	1,89	5,57
2010	1581,4	36,0	7,0	29,0	7,2	8,3	- 1,1	2,27	5,54
2011	1615,1	35,1	7,1	28,0	7,7	7,8	-0,1	2,13	5,50

² O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat aholisining 2000-2011 yillardagi demografik rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, tug'ilish ko'rsatkichlari ham, o'lim ko'rsatkichlari ham barqaror sur'atlarda saqlanib turibdi. Natijada aholining tabiiy o'sishida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermagan (2.1.1-jadval).

1992 yildan 2010 yilgacha viloyat aholisi 847, 3 ming kishidan 1204,3 ming kishigacha, ya'ni 142, 1 foizga ko'paydi. Yillik o'sish sur'atlari 2,2 foizdan oshiqni tashkil qildi (2.1.2-jadval). Viloyat tumanlarida aholi sonining o'sish sur'atlari bir-biridan biroz farq qilishi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida eng yuqorni o'sish sur'atlariga Xazarasp (176,8 foiz), Xiva (153,3), Urganch (152,6) tumanlari ega bo'ldi. Eng past o'sish sur'atlari Yangiariq (108,9), Bog'ot (122,6) tumanlarida mavjud bo'ldi. Xazaraspda bunday yuqori sur'atlarning mavjud bo'lishi 2003 yildan Pitnak qishlog'ining Xazarasp tumaniga qo'shib yuborilganligi bilan izohlanadi. Yangiariq va Bog'ot tumanlarida aholi soni o'sishida past sur'atlarning namoyon bo'lishi 2009 yilda shu nomdagi qishloq markazlarining shaharchaga aylantirilishi tufayli tumanda qishloq aholisi kamayganligi bilan izohlanadi.

2.1.2-jadval.

Xorazm viloyati tumanlarida doimiy aholi soni, 1992-2010 yillar*

№	Tumanlar	1992 yil oxiriga	1996 yil oxiriga	2000 yil oxiriga	2005 yil oxiriga	2010 yil oxiriga	2010 yil 1992 yilga nisbatan, o'zgarish
1	Bogot	91,6	103,1	112,8	123,8	112,3	122,6
2	Gurlan	70,4	78,7	86,3	93,8	102,5	145,6
3	+o'shkypir	86,6	96,7	104,6	114,4	125,8	145,3
4	Urganch	103,9	114,6	126,7	140,7	158,6	152,6
5	Xazorasp	100,1	112,2	122,8	160,9	177,0	176,8
6	Xon=a	80,7	89,5	97,7	107,8	119,8	149,3
7	Xiva	94,6	105,8	116,2	130,1	145,0	153,3
8	SHovot	87,1	97,3	104,9	113,8	124,9	143,4
9	YAngiari=	66,2	73,6	79,2	86	72,1	108,9
10	YAngibozor	45,5	50,4	54,9	60,2	66,3	145,7
	Jami	847,3	944,8	1031,1	1131,5	1204,3	142,1

*Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Gurlan tumanida ham aholi soni o'sishi ancha yuqori ko'rsatkichga ega (145,6

foiz). Bu umumviloyat ko'rsatkichidan yuqoridir (142,1). Ushbu yillarda tuman aholisi 70,4 ming kishidan 102, 5 ming kishigacha ko'paydi. Yillik o'sish sur'atlari 2,4 foizni tashkil qildi. Tumanda aholi sonining ko'payishi asosan aholining tabiiy o'sishi hisobiga va uning asosiy qismi bo'lgan tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi hisobiga yuz berdi.

Tumanda aholi o'rtasida tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligini aytib o'tgan holda, uning darajasi keyingi yillarda pasayib borayotganligini ham kuzatishimiz mumkin. 1991 yilda tumanda 2413 nafar bola tug'ilgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 2352 tani tashkil qildi. Butun viloyat bo'yicha ham tug'ilgan bolalar sonining kamayganligini kuzatishimiz mumkin (2.1.3-jadval). Bu yillarda butun viloyat bo'yicha tug'ilgan bolalar soni 29658 tadan 27842 tagcha kamaydi.

2.1.3-jadval.

Xorazm viloyati tumanlarida tug'ilish ko'rsatkichlari, 1991-2010 yillar*

№	Tumanlar	1991	1996	2000	2005	2010	2010 yil 1991 yilgga nisbatan, o'zgarish
1	Bogot	3270	3227	2816	2661	2578	-21,2
2	Gurlan	2418	2368	2267	2071	2352	-2,6
3	+o'shkypir	3119	2518	2590	2412	2888	-6,4
4	Urganch	3329	2931	2803	3100	3662	11,0
5	Xazorasp	4287	3537	3315	3547	4369	10,2
6	Xon=a	2798	2742	2527	2488	2755	-1,5
7	Xiva	3377	3085	3146	3399	3376	0,01
8	SHovot	3017	2764	2523	2344	2743	-9,0
9	YAngiari=	2334	1975	1907	1756	1591	-31,8
10	YAngibozor	1709	1400	1358	1334	1528	-10,6
	Jami	29658	27153	25785	25112	27842	-6,1

*Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Albatta, tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlarni mutloq ko'rsatkichlar yordamida emas, balki nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanib tahlil qilganda haqiqiy manzara yaqqol namoyon bo'ladi. Demografiyada nisbiy ko'rsatkichlar har ming aholiga nisbatan olinib, promilleda o'lchanadi va demografik koeffisientlar deb ataladi.

Demak, mana shu koeffisientlar yordamida viloyat tumanlarida tug`ilish darajasining qanday o`zgarishlarga uchraganini ko`rib chiqadigan bo`lsak, 1991 yilda viloyatda tug`ilish ko`rsatkichi har ming aholiga 37,6 promilleni tashkil qilgan (2.1.4-jadval).

2.1.4-jadval.

Xorazm viloyati tumanlarida tug`ilish koeffisientlari, 1991-2010 yillar*

№	Tumanlar	1991	1996	2000	2005	2010	2010 yil 1991 yilga nisbatan, o`zgarish
1	Bogot	37,8	30,9	25,2	21,7	23,2	- 38,6
2	Gurlan	38,1	29,9	26,7	22,3	25,2	- 33,9
3	Qo`shko`pir	38,0	25,9	25,1	21,3	23,4	- 38,4
4	Urganch	33,6	25,1	22,3	22,2	24,1	- 28,3
5	Xazarasp	37,2	31,1	27,3	22,2	26,3	- 29,3
6	Xonqa	38,7	30,2	26,1	23,3	26,3	- 32,0
7	Xiva	37,6	28,9	27,5	26,5	25,3	- 32,7
8	SHovot	40,7	28,0	24,2	20,7	24,6	- 39,6
9	YAngiariq	37,0	26,5	24,3	20,6	22,3	- 39,7
10	YAngibozor	39,7	27,3	24,9	22,3	24,5	- 38,3
	Jami	37,6	28,4	25,3	22,4	24,6	- 34,6

*Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu ko`rsatkich 2010 yilga kelib 24,6 promillegacha kamaydi, ya'ni kamayish ushbu davrda 38,6 foizni tashkil qildi. Viloyatning hamma tumanlarida tug`ilish darajasining kamayishi u yoki bu darajada yuz bergan. Lekin, bu ba'zi tumanlarda umumiy viloyat ko`rsatkichidan yuqoriroq bo`lgan bo`lsa, boshqalarida tug`ilishning darajasining pasayishi ancha past sur'atlarda davom qilganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa Urganch va Xazarasp tumanlarida tug`ilish darajasining pasayish sur'atlari umumviloyat ko`rsatkichlaridan ancha past bo`lgan, ya'ni muvofiq ravishda 28,3 va 29,3 foizni tashkil qildi. Bu shu bilan izohlanadiki, Urganch tumanida tahlil qilayotgan davrimizning boshida tug`ilish darajasi boshqa tumanlarga nisbatan ancha past bo`lgan, va xozirda tug`ilish darajasi ularniki bilan deyarli bir xil darajaga kelib qolgan.

Aholi tabiiy o`sishida muhim o`rin tutuvchi ko`rsatkichlarning ikkinchisi o`lim

darajasidir. O`lim darajasi qanchalik past bo`lsa tabiiy o`shish tug`ilish hisobiga shunchalik yuqori darajada saqlanib qolishi mumkin. Viloyat tumanlarining ko`pchiligida o`lim ko`rsatkichlarida son jihatdan ham qisqarish kuzatilgan. Masalan, YAngiariq tumanida bu davrda o`lganlar soni 27,1 foizga, Bog`ot tumanida 12,2 foizga kamaygan (2.1.5-jadval).

2.1.5-jadval.

Xorazm viloyati tumanlarida o`lim ko`rsatkichlari, 1991-2010 yillar*

№	Tumanlar	1991	1996	2000	2005	2010	2010 yil 1991 yilgga nisbatan, o`zgarish
1	Bogot	502	578	517	544	441	- 12,2
2	Gurlan	402	433	433	412	464	+15,4
3	Qo`shko`pir	500	476	497	486	487	- 02,6
4	Urganch	555	603	615	604	661	+19,1
5	Xazorasp	776	683	596	718	759	- 01,5
6	Xonqa	473	494	468	458	496	+04,8
7	Xiva	573	567	551	521	649	+13,2
8	SHovot	457	458	471	465	469	+02,6
9	YAngiariq	399	405	402	374	291	- 27,1
10	YAngibozor	254	292	291	289	306	+20,4
	Jami	4891	5105	4941	4871	5023	+02,7

*Viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzilgan.

Lekin, aholi o`limi ko`rsatkichlaridagi haqiqiy darajani har ming kishiga o`lganlar soni ifodalab beradi. Xorazm viloyatida 1991 yilda har ming kishi hisobiga o`lganlar soni 6,2 kishini tashkil qilgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2010 yilga kelib 4,4 kishigacha, ya`ni 29,0 foizga qisqardi. O`lim darajasining pasayishi, ayniqsa, SHovot (42,3 foizga), Qo`shko`pir (36,1 foizga) tumanlarida yuqori ko`rsatkichlarga ega bo`lgan. Buning sababini viloyat miqyosida butun respublikamizda bo`lganidek, tibbiyot sohasida erishilayotgan yutuqlar va aholi o`rtasida sog`lom turmush tarzining keng tarqalib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

SHu bilan birgalikda YAngibozor (16,9 foiz), Xiva (24,6 foiz), Urganch (25,0 foiz) tumanlarida o`lim darajasining pasayishi ancha sekin sur`atlarda borgan (2.1.6-jadval). Buni biz ushbu tumanlarda o`lim to`g`risidagi statistik ma`lumotlarning

berilishi yaxshilanganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Gurlan tumanida ushbu yillarda aholi oʻrtasida oʻlim koʻrsatkichlari har ming kishiga 6,3 dan 4,5 kishigacha qisqargan yoki 28,6 foizga qisqargan. YA'ni, aytish mumkinki, tumanda oʻlim koʻrsatkichlarining pasayish tendensiyasi viloyat koʻrsatkichlaridan kuchli farq qilmagan.

Aholi oʻrtasida tugʻilish va oʻlim darajasining oʻzgarishi tendensiyalarini tumanlar boʻyicha tahlil qilganda, bu ikki jarayonning farqidan kelib chiquvchi tabiiy oʻsish koeffisientining oʻzgarib borishi asosida aniqroq ifodalab berish mumkin boʻladi.

2.1.6-jadval.

Xorazm viloyati tumanlarida oʻlim koeffisientlari, 1991-2010 yillar

№	Tumanlar	1991	1996	2000	2005	2010	2010 yil 1991 yilgga nisbatan, oʻzgarish
1	Bogot	5,8	5,5	4,6	4,4	4,0	- 31,0
2	Gurlan	6,3	5,5	5,1	4,4	4,5	- 28,6
3	Qoʻshkoʻpir	6,1	4,9	4,8	4,3	3,9	- 36,1
4	Urganch	5,6	5,2	4,9	4,3	4,2	- 25,0
5	Xazorasp	6,7	6,0	4,9	4,5	4,6	- 31,3
6	Xonqa	6,5	5,4	4,8	4,3	4,8	- 26,2
7	Xiva	6,1	5,3	4,8	4,1	4,6	- 24,6
8	SHovot	6,2	4,6	4,5	4,1	4,0	- 42,3
9	YAngiariq	6,3	5,4	5,1	4,4	4,1	- 34,9
10	YAngibozor	5,9	5,7	5,3	4,8	4,9	- 16,9
	Jami	6,2	5,3	4,8	4,3	4,4	- 29,0

*Viloyat statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat 1991-2010 yillar davomida aholining tabiiy oʻsishi koeffisienti 31,4 promilledan 20,2 promillegacha, yaʼni 35,7 foizga qisqargan (2.1.7-jadval). Eng yuqori qisqarish YAngibozor (42,0), YAngiariq (40,7), SHovot (40,2) va Bogʻot (40,0 promille) tumanlarida kuzatilgan.

**Xorazm viloyati tumanlarida tabiiy o`shish koeffisientlari,
1991-2010 yillar**

№	Tumanlar	1991	1996	2000	2005	2010	2010 yil 1991 yilgga nisbatan, o`zgarish
1	Bogot	32,0	25,4	20,6	17,3	19,2	- 40,0
2	Gurlan	31,8	24,4	21,6	17,9	20,7	- 34,9
3	Qo`shko`pir	31,9	21,0	20,3	17,0	19,5	- 38,9
4	Urganch	28,0	19,9	17,4	17,9	19,9	- 28,9
5	Xazorasp	30,5	25,1	22,4	17,7	21,7	- 28,8
6	Xonqa	32,2	24,8	21,3	19,0	21,5	- 33,2
7	Xiva	31,5	23,6	22,7	22,4	20,7	- 34,2
8	SHovot	34,5	23,4	19,7	16,6	20,6	- 40,2
9	YAngiariq	30,7	21,1	19,2	16,2	18,2	- 40,7
10	YAngibozor	33,8	21,6	19,6	17,5	19,6	- 42,0
	Jami	31,4	23,1	20,5	18,1	20,2	- 35,7

*Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Gurlan tumanida aholining tabiiy o`shishi ushbu davrda 31,8 promilledan 20,7 promillegacha, ya'ni 34,9 foizga kamaygan. Bu ko`rsatkich umumiy viloyat darajasiga yaqindir.

Umumiy aholi soni va mehnatga yaroqli aholi sonining o`zgarishiga uchinchi ta'sir qiluvchi omil – bu migrasiyadir. Migrasiya aholining yosh-jins tarkibiga ham katta ta'sir ko`rsatadi. Ko`chib ketuvchilar hududida u erkaklarning sonini kamaytirib yuboradi (migrantlar tarkibida erkaklarning ulushi taxminan 55-56 foizni tashkil qiladi); aholining eng faol yoshdagi qismini kamaytirib yuboradi. Chunki migrantlarning 2/3 qismi 16-29 yoshdagilar bo`ladi. Mehnat yoshigacha va mehnat yoshidan yuqori bo`lganlarning migrantlar tarikbidagi hissasi 13-15 foizni tashkil qiladi. Demak, migrasiya mehnat resurslarining shakllanishiga katta ta'sir ko`rsatar ekan.

YUqoridagi javdval (3.1.1.) ma'lumotlari ko`rsatadiki, viloyatda aholining ko`chib yurishi ko`rsatkichlari ham 2009 yilgacha deyarli bir xil salbiy saldoga ega

bo`lib kelgan bo`lsa, shu yildan keyin ushbu salbiy saldoning kamayishi kuzatilmoqda. Binobarin, aholining yillik o`rtacha o`sish sur`atlari ham 2000-2009 yillarda 1,5-1,8 foizni tashkil qilgan bo`lsa, keyingi yillarda yillik o`sish 2,0 foizdan oshib ketdi. Bu yerda yana shuni ham aytib o`tish kerakki, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 martdagi 71-sonli Qarori asosida o`tkazilgan tanlama statistik kuzatuv natijasida hisob-kitoblarning yanada aniqlashtirilganligi tufayli aholi sonining keskin ko`payib ketganligi kuzatilgan.

Aholi va mehnat resurslarining rivojlanishi ikki xil: ekstensiv va intensiv yo`l bilan boradi. Rivojlanishning ekstensiv yo`li aholi va mehnat resurslarining miqdoriy o`sib borishiga olib keladi. Intensiv yo`l fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni, ularning bilim (ma`lumot va kasbiy) hajmlari oshib borishini bildiradi. U mehnat predmetlari va vositalarining, texnologiyalarning takomillashuvini taqazo etadi. Mehnatning fond sig`imi oshadi, eng asosiysi insonning o`zi takomillashib boradi. Aholi va mehnat resurslarining rivojlanishi nafaqat miqdoriy jihatdan, balki sifat jihatdan ham amalga oshadi.

Ishchi kuchi va aholi mehnat salohiyati tushunchalarini bir-biridan farqlash kerak bo`ladi. Farqi shundaki, ishchi kuchi tushunchasi amaldagi ishlab chiqarish uchun taalluqlidir, aholi mehnat salohiyati esa nafaqat doimo ishlatiladigan, balki aholining ishlatilmagan, yashirin imkoniyatlarini ham ko`rsatib beradi. Aholining mehnat salohiyatini qisqacha qilib aytganda, foydalanilayotgan ishchi kuchlarining mehnati va foydalanilmayotgan mehnat zahirolari sifatida tushunish kerak.

Iqtisodiy tahlil amaliyotida aholining ishlab chiqarishda qatnashish yoshidagi chegaralari bilan farq qiladigan demografik avlodlarning yoshlari bo`yicha taqsimlanishi ko`rsatkichlaridan keng foydalaniladi:

- 0-15 yosh – mehnatga yaroqli yoshdan kichik bo`lgan aholi;
- 16-59 (54) yosh – mehnatga yaroqli yoshdagi aholi;
- 60 (55) va undan yuqori yoshdagilar – mehnatga yaroqli yoshdan katta bo`lgan aholi.

Mehnatga yaroqli va mehnatga yaroqli bo`lmagan yoshdagi aholi ulushining ko`rsatkichlari aholining ushbu guruhlar sonini (mehnat yoshidan

kichiklar, mehnat yoshidagilar, mehnat yoshidan kattalar) umumiy aholi soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Ulush ko'rsatkichlari foizda hisoblanadi.

Aholi takror barpo bo'lishining hozirgi tendensiyasi saqlanib qolishida mehnatga yaroqli yoshdan katta bo'lgan aholi hissassi mehnatga yaroqli yoshdan kichik bo'lgan aholi hissasiga nisbatan yuqori bo'lib borishi ehtimoli bor.

Mamlakat erkak va ayol aholisining mehnat tarkibi bir-biridan ancha farq qiladi. Bunday farq quyidagilar ta'sirida yuzaga keladi:

a) erkaklarning, ayniqsa yuqori yoshlarda, o'lim ko'rsatkichlari darajasi ayollarnikiga nisbatan yuqoridir;

b) erkaklar va ayollarning mehnatdagi va mehnatdan yuqori yoshlaridagi farqlar ham mehnat yoshidan yuqori yoshdagi aholi tarkibidagi ulushiga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat yuki ko'rsatkichlari. Bular mehnat yoshida bo'lmagan aholining jamiyat va iqtisodiyotga bo'lgan yukini ko'rsatib beradi. Tug'ilish jarayonida yuz berayotgan pasayish tendensiyasi aholi tarkibida bolalar hissasining kamayishiga olib kelgan bo'lsa, ilgari yuqori tug'ilish darajasi davrida tug'ilgan avlodlarning xozirgi paytda mehnat yoshiga kirib kelishlari mehnat resurslarining ulushi yuqori bo'lishiga olib keldi. Natijada mehnat resurslariga bo'lgan bolalar yuki yildan yilga kamayib bormoqda (3.1.2-jadval). 1991 yildan 2010 yilgacha mehnat resurslariga bo'lgan mehnat yukining umumiy koeffisienti O'zbekiston bo'yicha 103,5 dan (ya'ni, ijtimoiy mehnatda qatnashuvchi 100 kishiga 103,5 ta bolalar va qariyalar to'g'ri kelgan) 63,6 gacha kamaygan. SHu jumladan, Quyi Amudaryo mintaqasi hududlarida ham xuddi shunday tarzda umumiy mehnat yukining kamayishi yuz bergan. Masalan, Xorazm viloyatida ushbu davrda umumiy mehnat yuki 114, 8 dan 67, 8 gacha kamaygan.

Iqtisodiy-demografik vaziyatni tahlil qilish, bandlik va boshqa sohalarda bevosita boshqaruv masalalarini yechish uchun ishlab turgan aholi avlodlarining almashinuvini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonni ifodalash uchun band aholining yangilanib borishi, ularning mehnati o'rnini qoplash jarayonlarini aniqlab beruvchi **mehnatni qoplash koeffisienti**

ko`rsatkichidan foydalaniladi. Ishlayotganlarning ko`pchiligi mehnatga yaroqli yoshdagi kishilar bo`ladi. SHuning uchun ham mehnatni qoplash ko`rsatkichi shu yoshdagi aholi uchun hisoblanadi. U mehnat yoshiga kirib kelayotgan yosh avlod sonini mehnat yoshidan chiqib ketayotgan (yoshiga ko`ra, o`lim tufayli va h.k.) aholi soniga bo`lib topiladi.

3.2. Viloyatda ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari

O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda respublikaning rivojlanish istiqbollariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida “Oliy Majlis tomonidan ma`qullangan dasturda 2013-yilda 970 mingdan ortiq yangi ish o`rni tashkil etish ko`zda tutilgan. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan mazkur masalani hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko`rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e`tibor qaratiladi. Ushbu sohalarda qariyb 500 ming ish o`rni yaratish rejalashtirilmoqda” deb ta`kidlagan edilar.³

Xozirgi kunda Xorazm viloyatida mehnatga yaroqli aholining bandligini ta`minlash maqsadida quyidagi qator chora-tadbirlar ko`rilyapti:

1. Bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati kuchaytirilmoqda;
2. Yangi ish o`rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag`batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilyapti;
3. Mehnat bozorida ish kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari ko`rilmoqda. Buning uchun mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yanada takomillashtirildi;
4. Aholini ish bilan ta`minlashning eng samarali vositalari bo`lgan kichik

³ “Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizasiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish”. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda respublikaning rivojlanish istiqbollariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasidan. “Xalq so`zi”, 19 yanvar 2013 yil.

biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko`rsatish va servis sohasi yanada jadal sur`atlarda rivojlantirilmoqda;

5. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo`lgan toifalari moddiy qo`llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o`rinlarini kvotalash tartibi yo`lga qo`yildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar, birinchi navbatda, ko`p bolali ayollar, nogironlar va shu kabi toifa aholining ish bilan ta`minlanmoqda;

6. Davlat va mahalliy budjet mablag`lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilyapti.

7. Tashqi va ichki migrasiyani tartibga solishga e`tibor kuchaytirilmoqda.

Respublikada mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini oshirish uchun zaruriy sharoitlar yaratish, mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish hamda bandlik masalalarini hal etishda mehnat organlari mas`uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida 2009 yil 30 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Mehnat va aholi ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-1251-sonli qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorga muvofiq, viloyatda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi yangi vazifalari belgilab berildi. SHuningdek, ushbu tizimga tegishli tarkibiy o`zgartirishlar ham kiritildi. Jumladan, tuman (shahar) mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo`limlari bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga aylantirish hamda yirik mahalla fuqarolar yig`inlari qoshida aholini ishga joylashtirish bo`yicha stasionar punktlar tashkil etish bo`yicha chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu markazlar avvalgi bo`limlardan tubdan farq qilib, ishsiz aholiga ko`rsatadigan xizmat ko`lami kengaytirildi va ular zimmasiga yangi vazifalar yuklatildi.

2.2.1 -jadval.

Xorazm viloyati Bandlikka ko`maklashuvchi markazga ish so`rab murojaat qilganlar*

№	SHaxar va tuman nomlari	Ish so`rab murojaat qilganlar					
		Jami 5 yilda	shu jumladan				
			2007y	2008y	2009y	2010y	2011y
1	Urganch sh.	20283	4183	4774	4914	3141	3271
2	Bogot t	16862	3101	3607	3759	3282	3113
3	Gurlan t	16785	3038	3780	3943	3036	2988
4	Kushkupir t	15625	2537	3283	3441	3195	3169
5	Urganch t	18012	3001	3775	3948	3630	3658
6	Xazarasp t	26483	4776	6096	6267	4698	4646
7	Xonka t	17089	2822	3580	3741	3498	3448
8	Xiva t	23662	4610	5405	5585	3957	4105
9	SHovot t	22589	4732	4993	4911	4361	3592
10	YAngiarik t	13622	2594	3108	3267	2399	2254
11	YAngibozor t	10432	1661	2182	2335	2207	2047
	Jami	201444	37055	44583	46111	37404	36291

*Jadval Xorazm viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Viloyatning barcha hududlaridagi Bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan band bo`lmagan aholiga ko`rsatilayotgan xizmat ko`rsatish sifati va turlarini kengaytirish bo`yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keyingi besh ichida (2007-2011 yillar) Bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlari tomonidan ro`yxatga olingan 201,4 ming kishidan 154,1 mingtasi ishga joylashtirildi (2.2.1. va 2.2.2. jadvallar). Ulardan 5610 tasi yangi kasblarga o`qitildi. Haq to`lanadigan jamoat ishlariga 13,8 ming kishi jalb qilindi.

Bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlariga ushbu yillarda ish so`rab murojaat qilganlarning eng ko`pi Xazarasp (26,5 ming kishi), Xiva (23,7 ming kishi) va SHovot (22,6 ming kishi) tumanlarida kuzatildi. Bu jarayon ayniqsa 2008 va 2009 yillarda juda kuchli namoyon bo`ldi (2.2.1 jadval). Buning sababini ushbu yillarda boshlangan jahon moliya-iqtisodiy inqirozining O`zbekistonga ta`siri bilan ham, Bandlikka ko`maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari ishining kuchaytirilganligi bilan ham izohlash mumkin.

Ishga joylashtirish viloyat bo'yicha 76,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Xazarasp tumanida 77,4 foizni, Xiva tumanida 77,2 foizni, Bog'ot tumanida 76,9 foizni tashkil qilgan. Eng past ko'rsatkich SHovot tumanida kuzatilib, ish so'rab murojaat qilganlarning 62,8 foizigina ishga joylashtirilgan (2.1.2 - jadval).

2.1.2 -jadval.

Xorazm viloyati Bandlikka ko'maklashuvchi markazga ish so'rab murojaat qilganlarning ishga joylashtirilganlari*

№	SHaxar va tuman nomlari	Ishga joylashtirilganlar					
		Jami 5 yilda	shu jumladan				
			2007y	2008y	2009y	2010y	2011y
1	Urganch sh.	15679	3148	3403	3625	2714	2789
2	Bogot t	13012	2260	2582	2671	2725	2774
3	Gurlan t	12689	2281	2555	2590	2621	2642
4	Kushkupir t	12208	2107	2220	2261	2809	2811
5	Urganch t	15578	2683	3406	3194	3124	3171
6	Xazarasp t	20540	3800	4214	4418	4047	4061
7	Xonka t	13529	2264	2490	2536	3123	3116
8	Xiva t	18325	3552	3861	3965	3453	3494
9	SHovot t	14176	2882	2897	2975	2683	2739
10	YAngiarik t	10273	1956	2181	2216	1944	1976
11	YAngibozor t	8111	1333	1588	1622	1740	1828
	Jami	154120	28266	31397	32073	30983	31401

*Jadval Xorazm viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi «SHahsiy yordamchi, dehqon va fermer ho'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-308-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish xamda chorvachilik maxsulotlari ishlab chikarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2008 yil 21 apreldagi PQ-842-sonli qaroriga asosan 2006-2010 yillarda Xorazm viloyatida 105393 nafar fuqaro mehnat daftarchasi olish va yuritish to'g'risida ariza bergan bo'lib, ulardan 24434 nafariga yangi mehnat daftarchalari ochildi va mehnat daftarchalari avvaldan mavjud bo'lgan 80959 nafar fuqaroning mehnat daftarchalariga mehnat faoliyatini boshlanishi to'g'risida yozuv kiritilib ularning bandligi ta'minlandi.

Mazkur Qaror asosida viloyat bo'yicha kam ta'minlangan oilalarga koramol sotib olish uchun Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi

mablag'lari hisobiga 3937 ta oilaga 3507,3 mln. so'm imtiyozli kreditlar ajratildi (2.1.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi 2006-2010 yillarda "O'zbekiston Respublikasida servis va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-325-sonli va 2007 yil 21 maydagi "2010 yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-640-sonli qaroriga asosan 2007-2010 yillarda 3742,9 mln. so'm mablag' ajritilib 3455 ta ish o'rinlari yaratildi.

Aholini ish bilan ta'minlash, bandligini yaxshilash, aholini ijtimoiy himoyasiga qaratilgan birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ayniqsa butun dunyo iqtisodiyotiga o'ta keskin ta'sir ko'rsatayotgan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir paytda, bu vazifaning muhimligi yanada ortdi.

2001-2010 yillarda aholi bandligini yaxshilash maqsadida 349599 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 367835 ta yangi ish joylari tashkil etildi. Dasturlar talabi 105,2 foizga bajarildi (3-ilogaga qarang). Yaratilgan ish o'rinlarining 266680 tasi yoki 72,5 % i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga, 101522 tasi yoki 27.6 % i xizmat ko'rsatish va servis sohalariga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3706-sonli Farmoni bilan O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik sanoat korxonalarida kasanachilik mehnatini joriy qilish amaliyoti boshlandi.

Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o'rtasida kooperasiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish tajini hisoblash, ularga pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash xuquqi ta'minlanadi.

Olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2007 yil 6 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-616-sonli qarori qabul qilinib, bu qaror bilan kasanachilik mehnatini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, birinchi galda transport, aloqa, qurilish va qurilish industriyasining yirik korxonalariga, shuningdek maxsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat korxonalarida ham joriy etilishi ko'zda tutildi.

Kasanachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xujjatlardan biri - Bazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 iyuldagi "Kasanachilikni tashkil etishni takomillashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining uni rivojlantirish parametrlari bajarilishi yuzasidan javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 146-sonli qarori bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1112-sonli qarori bilan kichik korxonalar o'z uylarida ishlayotgan kasanachi-fuqarolar bilan, qonun xujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan normatividan ko'pi bilan 30 foiz oshgan mikdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar, va preferensiyalar mazkur korxona uchun saqlanib qoladi, ya'ni yirik korxonalar toifasiga o'tkazilmaydi.

Viloyatda 2007-2011 yillarda 13775 ta kasanachilik ish o'rinlari tashkil qilindi (4-ilovaga qarang). Kasanachilik sohasida ish o'rinlari yaratayotgan korxonalarga hamda kasanachilik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun ham mamlakatimizda rag'batlantirishning yaxlit va ta'sirchan tizimi yaratildi, bugungi kunda kasanachilik sohasi bandlik va oila budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotgani, bu sohada, birinchi navbatda, xotin-qizlar, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Bunga misol,

2006-2010 yillar mobaynida viloyatimizda kasanachilar tomonidan 5 mlrd 62 mln soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar koʻrsatildi. Kasanachilik uchun ish oʻrinlari ochgan korxonalarga berilgan imtiyozlar hisobidan 536 mln 862 ming soʻmdan ortiq mablagʻni tejashga erishdi.

2.3. Mehnat bozorini tartibga solishning asosiy yoʻnalishlari va istiqbollari

Mehnat bozorida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida aholining ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarini belgilash, u yoki bu ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy-mehnat mojarolarini bartaraf etish boʻyicha ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar oʻrtasidagi munosabatlar markaziy oʻrin egallaydi. Mehnat bozorida mazkur munosabatlar jamoaviy, shaxsiy va hududiy usullar asosida tartibga solinadi. Jamoaviy bitimlar tuzilayotganda Oʻzbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasi va tavsiyalariga asoslaniladi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Konvensiyasida (54-bandida) taʼkidlanganidek, “Jamoaviy muzoqaralar, bir tomondan, tadbirlar, tadbirkorlar guruhi bilan, boshqa tomondan esa, mehnatkashlarning bitta yoki bir necha tashkiloti oʻrtasida: a) mehnat sharoiti va bandlikni belgilash; b) tadbirkorlar va mehnatkashlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish; v) tadbirkorlar yoki ularning tashkilotlari va mehnatkashlarning tashkiloti yoki tashkilotlari oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida olib boriladigan barcha muzoqaralarni bildiradi”.

Mehnat bozorida bunday tartibga solishni qoʻllanishning eng muhim afzalligi shundaki, unda qabul qilinadigan qarorlar nihoyatda qayishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) boʻladi, ularni na qonunchilik, na sud va na maʼmuriy usullarga qiyoslab boʻlmaydi.

Xodim bilan tuzilgan shaxsiy shartnoma ish beruvchisi uchun ancha foydalidir. SHaxsiy shartnoma tizimi mehnatchining mehnat sharoiti va unga toʻlanadigan ish haqini shu odamga qarab belgilash imkonini beradi. Jamoaviy bitimlarga koʻra esa, bunday qilib boʻlmaydi. SHu bilan birga, tuziladigan shaxsiy bitim koʻp hollarda mehnatkashlarni ijtimoiy kafolatlarining kattagina qismidan mahrum etadi.

So`nggi holatni alohida hisobga olishimiz lozim. Chunki, respublikamizda, bir tomondan, ishchilarni yollab ishlatish bo`yicha xususiy tadbirkorlik va biznes yaxshi rivojlanmagan bo`lsa, ikkinchi tomondan esa, kam ta`minlangan hamda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan mehnatkashlar orasida ishsizlar soni oshib borayapti.

O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda respublikaning rivojlanish istiqbollariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida “YAngi ish o`rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta`minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo`ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo`nalishi bo`lib qoladi” deb ta`kidlab o`tdilar.⁴

Bularning hammasi mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi, samarali hududiy usullarini, ularni mehnat resurslari ortiqcha va yetishmaydigan hududlarga bo`lgan holda, tadqiq etishni talab qilmoqda.

Respublikaning mehnat resurslari ortiqcha hududlari, avvalo, Andijon, Farg`ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari deb, ishchi kuchiga bo`lgan talabning oshishi va uning taklifi kamayishini hisoblash zarur.

Ishchi kuchlariga bo`lgan taklifni kamaytirish, shuningdek, ularni mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va harakatchanligini rag`batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo`lganlar o`rtasida qayta taqsimlash orqali samarali tashkil etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta`lim dasturlarini kengaytirish va o`qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o`quv yurtlarida kunduzgi ta`lim oladigan talaba o`rinlarini ko`paytirish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o`qiyotganlarga stipendiyalarni oshirish, ayollarga bola parvarish uchun

⁴ “Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizasiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish”. O`zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda respublikaning rivojlanish istiqbollariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasidan. “Xalq so`zi”, 19 yanvar 2013 yil.

to'lanadigan nafaqalar va beriladigan ta'lim muddatini ko'paytirish. Mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish; pensionerlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning pensiyalarini oshirish – mehnat bozorida ishchi kuchlarini oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Jadval 2.3.1.

Xorazm viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish, 2012 yili*

№	SHahar va tumanlar nomi	01.01.13 y holatiga aholi soni	Mehnat resurslari		iqtiso- diy faol aholi	iqtisodi yotda band aholi soni	Jami ishsiz- lar soni
			mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni	ishlayot- gan o`smirlar va pensionerlar soni			
		m.kishi	m.kishi	m.kishi	M.kishi	m.kishi	Kishi
	Jami viloyat bo`yicha	1654100	917900	4200	679121	643444	35628
1	Urganch shaxri	138568	76895	352	54447	51470	2977
2	Bogot tumani	143733	79761	365	57317	54494	2823
3	Gurlan tumani	132085	73298	335	59265	56230	3035
4	Kushkupir tumani	150115	83303	381	60864	57361	3503
5	Urganch tumani	171285	95050	435	70842	67346	3496
6	Xazorasp tumani	219196	121637	557	89664	85004	4660
7	Xonka tumani	163688	90834	416	64466	60937	3529
8	Xiva tumani	208358	115623	529	87088	82787	4301
9	SHovot tumani	147481	82841	374	61030	57375	3655
10	YAngiarik tumani	102406	56828	260	42733	40437	2296
11	YAngibozor tumani	77185	42830	196	31405	30004	1401

*Xorazm viloyati mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o'tishlarini rag'batlantirishga ularga ham ish bilan to'la band qilingan shaxslarga mo'ljallangan ijtimoiy ta'minotning turlarini, ta'tillar va ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o'rnatish, kafolatlarga eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta'minlash, har yili beriladigan ta'tillarni o'z vaqtida berish, ish kuni

va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan unumli foydalanish – raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi umumxo`jalik mexanizmlari va dastaklari yordamida ta`minlanishi lozim. Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishni rag`batlantirishning umumxo`jalik mexanizmlari yaxshi takomillashtirilmaganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchun ilgari joriy qilingan to`lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko`maklashadi. Bu xil to`lovlar korxona va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari saqlash uchun qat`iy stavka shaklida o`rnatiladi. SHu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar o`rnini qoplash uchun ijtimoiy sug`urta solinadigan maxsus soliq (ikkalasi ham – mehnatga haq to`lash fondidan foizlarda)dan foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatning ko`pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi mehnatdan foydalanishning intensiv shakllarini ifodalaydi hamda mehnat bozoridagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlarni yaratadi;

Hozirgi shart-sharoitlarda mehnat bozoriga ishchi kuchlari taklifini mutloq ko`paytirishga qayta ishlash sanoati va xizmat ko`rsatish tarmoqlari va shoxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalarining rivoji jiddiy to`siq bo`lishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka strukturasi bo`yicha hudud iqtisodiyotining noqishloq ishlab chiqarish tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o`sis sur`atiga javob bermaydi. SHu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko`rsatkichlarini o`zgartirish hamda uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati tizimidagi va boshqa o`quv yurtlaridagi xodimlarning malakasini oshirishni tashki etish, korxonalarining o`zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o`rgatishni yaxshilash va ularga soliq to`lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishninshg maqsadli maxsus dasturini ishlab chiqish

kerak.

O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirish yo'nalishida ishga joylashmagan va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan aholi qatlamini taxlil qilish muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Xorazm viloyatida ishsizlik darajasi Farg'ona (iqtisodiy faol aholiga nisbatan 5,5 %), Andijon (5,5 %), Namangan (5,4 %), Samarkand (5,4 %) viloyatlaridan keyin respublikada eng yuqori ko'rsatkichlardan sanaladi (5,2 %). Bu nisbiy ko'rsatkich mutloq sonlarda 32,2 ming kishini tashkil qiladi. SHu bilan birgalikda viloyatda 80,7 ming kishi vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band bo'lganlar (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

Ishga joylashmagan va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan aholi, 2010 yil*

№	Xududlar (viloyatlar) nomi	Ishsizlar soni (kishi)	Ishsizlik darajasi (%)	vaqtinchalik va mavsumiy ishda band (kishi)
1	Jizzax	17 429	4,2%	54 684
2	Sirdaryo	14 438	4,3%	32 781
3	Toshkent v.	53 239	4,5%	186 203
4	Toshkent sh.	40 597	3,4%	80 070
5	Andijon	61 725	5,5%	201 354
6	Namangan	45 081	5,4%	115 674
7	Farg'ona	76 216	5,5%	228 644
8	Buxoro	38 306	4,9%	82 560
9	Navoiy	21 668	5,1%	38 364
10	Samarkand	68 002	5,4%	174 795
11	Qashqadaryo	50 593	5,1%	150 956
12	Surxondaryo	39 914	5,1%	115 100
13	Xorazm	32 217	5,2%	80 754

*Jadval Xorazm viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning innovasion turiga o'tish natijasida O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning innovasion yo'nalishi kuchayganligini aks ettiruvchi ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Masalan, O'zbekiston iqtisodiyotida o'zlashtirilgan investisiyalarning 70 foizga yaqini ishlab chiqarish

sektoriga, shu jumladan yarmidan ko'pi texnik va texnologik modernizasiyalashga yo'naltirilgan. 2006-2010 yillarda xorijiy va davlat kapital qo'yilmalarini ko'paytirish natijasida fan va texnologiyalar rivojlanishini uyg'unlashtirishni yaxshilash, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish imkoniyati yaratildi. Mana shunday say'i harakatlar tufayli, YAIM dagi yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 2000 yildagi 3,5 foizdan 2010 yilda 6,8 foizga yetkazildi⁵.

Xorazm viloyatida mehnat bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari. Aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohaslarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish belgilangan.

Mamlakatni modernizasiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

Aholi bandligini oshirish va ish o'rinlarini ko'paytirish borasida viloyat iqtisodiyoti oldidagi vazifalar:

1) yangi ish joylarini yaratish bo'yicha 2013 yilga belgilangan dastur parametrlarining bajarilishini ta'minlash;

2) har bir shahar va tuman kesimida "2013 yilda yangi ish joylari yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi"ning manzilli ro'yxatlarini har bir korxona, ob'ekt bo'yicha ishga tushirish rejasini ("tarmok grafigi"ni) tasdiqlagan holda, tasdiqlash va nazoratini amalga oshirish;

3) 2013-2015 yillarda kichik biznes, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari va ob'ektlarni ishga tushirishning aniq manzilli ro'yhatlarini shakllantirish;

4) har bir tuman, shaharda hokimlar boshchiligida yangi ish joylari yaratish va aholi bandligini ta'minlash choralarini ko'rish, manzilli dasturga kiritilgan

⁵ Rasulov N.M. Nasioanalnaya innovatsionnaya sistema i yee vliyaniye na povysheniye konkurentosposobnosti ekonomiki. Dvadsat shestye mejdunarodnye Plexanovskie chteniya. Tezisy dokladov. Moskva 2013. S.236.

korxonalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jumladan ro'yxatdan o'tkazish, moddiy-texnika resurslaridan va muhandislik kommunikasiyalaridan foydalanish, dastlabki sarmoyani shakllantirish va kreditlar olish, mahsulotni sotish kabi muammolarni aniqlash va hal etish choralarini amalga oshirish;

5) kasanachilik ish joylarini ko'paytirish borasida tuman (shaxar)larda ishini keskin jonlantirish, mavjud kasanachilik ish joylarini saqlab qolish va 2013 yil manzilli dasturi ijrosini ta'minlash;

6) ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilma ob'ektlarini loyihalarini amalga oshirishga ishsizlarni jalb etish;

7) band bo'lmagan aholini ijtimoiy ximoyasini kuchaytirish (ishsizlarni xak to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish, kasbga qayta o'qitish va sh.k.)

8) Obod turmush yilida yoshlar, jumladan kollej bitiruvchilari va xarbiy xizmatdan qaytganlarning xar biri bilan ishlab, to'liq ish bilan, jumladan zaxira kilingan ish joylariga ta'minlash.

9) kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, bunday oilalardagi mehnatga layokatli yoshlarni birinchi navbatda ish bilan ta'minlash va o'z ishini boshlashlariga ko'maklashish

Xorazm viloyatining tumanlari bo'yicha ishga joylashmagan va vaqtinchalik ishlarda band bo'lganlarni taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, ishsizlar soni Xazarasp (4,2 ming kishi), Qo'shko'pir (4,0 ming kishi), Xiva (3,5 ming kishi), Bog'ot (3,5 ming kishi) tumanlarida eng yuqori ko'rsatkichga egadir (2.3.4-jadval). SHunga mos ravishda ishsizlik darajasi kam Qo'shko'pir (7,5 %), Bog'ot (5,9 %), Xiva (5,4 %) va Urganch (5,4 %) tumanlarida viloyatda eng yuqoridir. Bundan tashqari ushbu tumanlarda vaqtinchalik va mavsumiy ishda band bo'lganlar miqdori kam yuqoridir. Ular Xazarasp (11,3 ming kishi), Bog'ot (9,7 ming kishi), Urganch (9,5 ming kishi) tumanlarida, Urganch shaxrida (9,5 ming kishi) va Gurlan tumanida (9,1 ming kishi) ko'pchilikni tashkil qiladi.

**Ishga joylashmagan va vaqtinchalik ishlarda
band bulgan aholi, 2009 yil***

№	Tuman (shaxar)lar nomi	Ishsizlar soni (kishi)	Ishsizlik darajasi (%)	Vaqtinchalik va mavsumiy ishda band (kishi)
1	Qo`shko`pir tumani	3 960	7,5%	4 555
2	Bog`ot tumani	3 512	5,9%	9 670
3	Xiva tumani	3 549	5,4%	5 160
4	Urganch tumani	3 290	5,4%	9 508
5	Xazorasp tumani	4 206	5,2%	11 346
6	Honqa tumani	3 177	5,2%	6 815
7	Gurlan tumani	2 681	5,1%	9 066
8	Urganch shahri	2 857	4,9%	9 518
9	SHovot tumani	2 329	4,7%	5 046
10	YAngiariq tumani	1 520	3,9%	5 290
11	YAngibozor tumani	1 136	3,2%	4 780

*Jadval Xorazm viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Xorazm viloyatining ushbu tumanlarida vujudga kelgan bunday muammolar yangi ish joylarni yaratishda sustlik yo`l qo`yish oqibatlari hisoblanadi. Ayniqsa, ish joylarini yangi yaratilgan ish joylari hisobiga tashkil yuqoridagi va boshka tumanlarda yaxshi yo`lga qo`yilmagan. SHovot tumanida yaratilgan ish joylarining bor yo`g`i 16,2 % yangi korxonalar hisobiga tashkil qilingandir (2.3.4-jadval). Xuddi shunday Xonqa (18,1 %), Gurlan (18,6 %), YAngibozor (18,6 %) tumanlarida ish o`rinlarining YAngi korxonalar hisobiga tashkil qilinishi darajasi ancha pastdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni modernizasiyalash va innovasion rivojlanish sharoitida aholini ish bilan ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan, Xorazm viloyatida yuz berayotgan jarayonlarni tadqiq qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

1. Iqtisodiyotni modernizasiyalash va innovasion rivojlanish sharoitida aholini ish bilan ta'minlash borasida keyingi yillarda juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi;

Bugungi kunda mamlakatda aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

- Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

- Ishlab chiqarishni modernizasiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiyalashga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

- Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

2. Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi;

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslanuvchanligi;

- xo`jalik a`zolarining ma`lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag`lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

- mehnatni tashkil qilishdagi va xo`jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

3. Viloyatda mehnat resurslari tez sur`atlarda o`lib borayotgan sharoitda ishchi kuchlaridan foydalanishning demografik jixatlari asoslab berilishi bu jarayonni samarali tashkil qilish imkonini beradi;

- tug`ilish jarayonida yuz berayotgan pasayish tendensiyasi aholi tarkibida bolalar hissasining kamayishiga olib kelgan bo`lsa, ilgari yuqori tug`ilish darajasi davrida tug`ilgan avlodlarning xozirgi paytda mehnat yoshiga kirib kelishlari mehnat resurslarining ulushi yuqori bo`lishiga olib keldi. Natijada mehnat resurslariga bo`lgan bolalar yuki yildan yilga kamayib bormoqda.

1991 yildan 2010 yilgacha mehnat resurslariga bo`lgan mehnat yukining umumiy koeffisienti O`zbekiston bo`yicha 103,5 dan (ya`ni, ijtimoiy mehnatda qatnashuvchi 100 kishiga 103,5 ta bolalar va qariyalar to`g`ri kelgan) 63,6 gacha kamaygan. SHu jumladan, Xorazm viloyatida ushbu davrda umumiy mehnat yuki 114, 8 dan 67, 8 gacha kamaygan.

- mehnatni qoplash koeffisientini Xorazm viloyatining 2006-2011 yillardagi mehnatni qoplash koeffisientini har yili nafaqaga chiqib ketadigan aholi o`rnini shu yili mehnat resurslari tarkibiga kirib keladiganlar nisbati bilan aniqlaganda viloyatda yillik mehnatni qoplash koeffisienti 2006 yilda har bir mehnat resursiga 5,6 o`rnini qoplaydigan zahira kirib kelishini ko`rsatadi. 2001 yilga kelib bu ko`rsatkich 5,3 zahirani tashkil qiladi.

4. Mehnat bozorini tartibga solishning asosiy yo`nalishlari va istiqbollari belgilab berilgan va uni takomillashtirish bo`yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mehnat resurslari bilan ko`p ta`minlangan respublikamiz mehnat bozorining rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi – mehnatga layoqatli aholi bandligini kamayishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyasiyaning mavjudligi muammolarini hal qilishdir. Mulkchilikning turli shakllarini sekinlik bilan vujudga

kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni juda sekinlik bilan amalga oshirilishi, haqiqiy daromadlarining kamayishi kabi ishchi kuchi talabini oshirish va uning taklifini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Ular o'tish davri O'zbekiston milliy iqtisodiyotini chuqur, tarkibiy va erkinlashtirishni isloh qilishning strategik maqsadlariga asoslanib ishlab chiqiladi.

Xozirgi kunda Xorazm viloyati va uning Gurlan tumanida mehnatga yaroqli aholining bandligini ta'minlash maqsadida quyidagi qator chora-tadbirlar ko'rilyapti:

1. Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati kuchaytirilmoqda;

2. Yangi ish o'rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag'batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilyapti;

3. Mehnat bozorida ish kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Buning uchun mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yanada takomillashtirildi;

4. Aholini ish bilan ta'minlashning eng samarali vositalari bo'lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis sohasi yanada jadal sur'atlarda rivojlantirilmoqda;

5. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan toifalari moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o'rinlarini kvotalash tartibi yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar, birinchi navbatda, ko'p bolali ayollar, nogironlar va shu kabi toifa aholining ish bilan ta'minlanmoqda;

6. Davlat va mahalliy budget mablag'lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilyapti.

7. Tashqi va ichki migrasiyani tartibga solishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Aholi bandligini oshirish borasida tumanda quyidagi muammolar va kamchiliklar aniqlandi:

1. Ish bilan ta'minlanishga muxtoj aholi sonining ko'pligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi

2. Yaratilayotgan yangi ish joylari soni oldingi yilga nisbatan kam, mehnat bozoridagi salbiy nomuvofiqlik;

3. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orkali ish joylarini ko'paytirish choralari kurilmayotganligi
4. Kasanachilik ish joylarini ko'paytirish imkoniyatlari ishga solinmayotganligi
5. Yangi ob'ektlarni ishga tushirish, mavjud korxonalarni modernizatsiyalash ishlari (natijasiz)
6. Investitsiyalarni, jumladan xorijdan, jalb etish bo'yicha faol xarakat yuqligi

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida aholini ish bilan ta'minlashning hududiy dasturini ishlab chiqish va unda quyidagi asosiy asosiy yo'nalishlarni belgilab ko'rsatishni taklif qilamiz:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Uy mehnati (kasanachilik)ni rivojlantirish;
- Xizmat kursatish soxalarini rivojlantirish;
- Yangi ishlab chikarish ob'ektlarini ishga tushirish;
- Mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish hisobiga ish o'rinlarini ko'paytirish;
- Ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish
- Inqirozga qarshi dasturga muvofiq qo'shimcha chora-tadbirlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Bosh maqsadimiz – keng koʻlamli islohotlar va modernizasiya yoʻlini qatʼiyat bilan davom ettirish”. Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda respublikaning rivojlanish istiqbollariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi. “Xalq soʻzi”, 19 yanvar 2013 yil.
2. Karimov I. A. Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlidan. T.: «Oʻzbekiston», 1995.
3. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «Oʻzbekiston», 1997.
4. Karimov I. A.– svoy put obnovleniya i progressa. T.: «Uzbekistan», 1992.
5. Karimov M.A. – sobstvennaya model perexoda na rynochnye otnosheniya. T.: «Uzbekistan», 1992. 71 s.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. — Toshkent: Uzbekistan, 2009 yil. — 35-6.
7. Inson manfaatlari ustuvorligini taʼminlash — barcha islohot va oʻzgarishlarimizning bosh maqsadidir Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi/Xalq soʻzi, 14 fevral 2007 y.
8. «Aholini ish bilan taʼminlash toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni (YAngi taxrirda). Toshkent, 1998.
9. Mehnat kodeksi. T.: «Oʻzbekiston», 1999.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ishga joylash tirishga muhtoj mehnat bilan band boʻlmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish toʻgʻrisidagi» №106-sonli 24.05.07 yildagi Farmoyishi.

- 11.K.X.Abduraxmanov «Mexnat iktisodiyoti» Toshkent, «Mexnat»
2004.,207
- 12.Abdurahmonov K.X., Mamarasulov F.U. Aholining ish bilan bandligi
infrastruktarsi. T.: 2000 y.
- 13.Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana: demograficheskaya istoriya i
sovremennost. T.: 2009. 223 s.
- 14.Bondareva N.I. Metodicheskie voprosy issledovaniya sistemy upravleniya
intellektualnoy sobstvennostyu. Nauchnye trudy INP AN Rossii. - M., 2008. - S.
341.
15. yegorov V.D. Trudovoy potensial naseleniya: formirovanie i ispolzovanie v
usloviyax reformirovaniya ekonomiki / Nauch. red. L.I.Lipatova – Saransk: Izd-
vo Mordov. un-ta, 2003, S.27.
- 16.Keyns J.M. Obshaya teoriya zanyatosti, deneg i prosenta. M.:1936.
- 17.Korovkin A.G. Dinamika zanyatosti i rynka truda: voprosq
makroekonomicheskogo analiza i prognozirovaniya. – M., MAKS Press, 2001.
- 18.Kotlyar M. Ekonomiko-demograficheskie problemy zanyatosti //
Demograficheskie aspekty zanyatosti. – M., 1976. – S.4-5.
- 19.Migrasiya i rynek truda v stranax Sredney Azii. Moskva – Tashkent, 2002.
- 20.Osnovy ekonomicheskoy bezopasnosti (gosudarstvo, region, predpriyatie,
lichnost): Uchebno-prakticheskoe posobie pod redaksiey Oleynikova ye.A. —
M.: ZAO «Biznes shkola Intel-sintez», 1997.
- 21.Ruzmetov B. Programma stabilizatsii regionalnoy ekonomiki: opyt, problemy,
effektivnost. T.: «Fan», 1993.
- 22.Ruzmetov B. Regionalnaya ekonomika: opyt, problemy, effektivnost
kompleksnogo razvitiya regiona. T.: «Fan», 2002.
- 23.Sadullaev A. Mehnat bozori va aholini ijtimoiy himoya qilish. Urganch:
1997.
- 24.Topilin A.V. Rynek truda Rossi i stran SNG: realii i perspektivy razvitiya. M.,
2004. S.11.

- 25.Uskova T. Proizvoditelnost truda — glavniy faktor rosta ekonomiki. Ekonomist, №10, 2009. — S. 15.
- 26.Xolmuminov SH.R. Mehnat bozori iktisodiyoti. T.: 2000 y.
27. Ekonomicheskaya bezopasnost. Proizvodstvo-Finansy-Banki / Pod redaksiey akademika V.K. Senchakova. — Moskva: ZAO «Finstatistform», 1998. - S.71.
- 28.Axmedov I.A. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda innovasiyalar mohiyati. “O`zbekistonning mehnat salohiyati:hozirgi holati va ulardan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to`plami. Toshkent, 2011. 33 b.
- 29.L.Maksakova. Migrasiya i predprinimatelstvo. «Ekonomicheskoe obozrenie» 2006 – 2.
- 30.Sadullaev A. Regionalnye osobennosti regulirovaniya rynka truda. Dvadsat shestye mejdunarodnye Plexanovskie chteniya. Tezisy dokladov. Moskva 2013. S.146.
- 31.Sadullaev A. Mintaqa mehnat salohiyatidan unumli foydalanish imkoniyatlari. “O`zbekistonning mehnat salohiyati:hozirgi holati va ulardan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to`plami. Toshkent, 2011. 177 b.
- 32.Sadullaev SH.A. Demograficheskie faktory regulirovaniya rynka truda. Dvadsat shestye mejdunarodnye Plexanovskie chteniya. Tezisy dokladov. Moskva 2013. S.148.
- 33.Sadullaev SH.A. Mehnat bozorini tartibga solishning mintaqaviy xususiyatlari. “O`zbekistonning mehnat salohiyati:hozirgi holati va ulardan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislar to`plami. Toshkent, 2011. 308 b.
- 34.Rasulov N.M. Nasioanalnaya innovasionnaya sistema i yee vliyanie na povyshenie konkurentosposobnosti ekonomiki. Dvadsat shestye mejdunarodnye Plexanovskie chteniya. Tezisy dokladov. Moskva 2013. S.236.
- 35.SHadiev R.X. Rynok truda: voprosy teorii i praktiki. Materialy seminara Vsemirnogo Banka po socialnym proektam. M.: MGU, 2001.

36. SHakirova K.F. Osobennosti innovatsionnogo tipa razvitiya nasionalnoy ekonomiki. Dvadsat shestye mejdunarodnye Plexanovskie chteniya. Tezisy dokladov. Moskva 2013. S.242.
37. Maksakova L.P. Problemy obespecheniya zanyatosti trudovyx resursov Respubliki Uzbekistan v perexodnom periode k rynku. Aftoreferat dokt. dissert. T.: 1995. 42 s.
38. SNG v 2003 g. Statisticheskii spravochnik. — M., 2004. — S. 125.
39. Trud i zanyatost v Uzbekistane. Goskomstat Uzbekistana. — Tashkent, 2007. — S. 30;
40. Trud i zanyatost v Uzbekistane. Goskomstat Uzbekistana, 2009. — S. 31.
41. Trud i zanyatost v Uzbekistane. Goskomstat Uzbekistana, 2011. — S. 93.
42. Doklad o chelovecheskom razvitii. T.: 2011.

Internet ma'lumotlari:

Statkomitet SNG (www.stsstat.com).